

**Buxoro Davlat Universiteti, Turizm fakulteti 5A610301 – Turizm ( xalqaro va ichki turizm )mutaxassisligi magistratura ta’lim bosqichi II kurs talabasi Ruziyeva Gulinozning “Turistik erkin iqtisodiy hududlarni yaratish” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga**

**ANNOTATSIYA**

O`zbekistonda xorijiy mehmonlarni jalb qilishda ko`plab resurslar (arxeologik ob`ektlar, monumental san`at asarlari, arxitektura yodgorliklari, zamonaviy mehmonxona va restoranlar, transport va kommunikatsiya xizmatlari) - turizmni faol ravishda rivojlantirish uchun ahamiyatlidir.

Erkin iqtisodiy hudud - bu maxsus maqomga ega bo`lgan ma`muriy jihatdan, ayrim holda geografik jihatdan aniqlangan maydon bo`lib, eksport ishlab chiqarishga mo`ljallangan uskuna va boshqa tovarlarni erkin import qilishni ko`zda tutadi. Turistik EIHL esa turizmga ixtisoslashgan hududlar bo`lib, ularni yaratishdan ko`zlangan maqsad - xalqaro turizmning o`sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va mamlakatga kelayotgan turistlar oqimini barqarorlashtirish maqsadida turistik ob`ektlarni qurish va ekspluatatsiya qilishda xorijiy hamkorlarni jalb qilishdan iborat.

Afsonaviy o`tmishi, Ipak Yo`lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avloddan-avlodga o`tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo`stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni xursand etuvchi O`zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o`ziga jalb etadi.

Bugungi kunda O`zbekistonda 3 ta erkin iqtisodiy hududlar faoliyati yo`lga qo`yilgan hamda 2017 – yilda yana 4ta bunday hudud faoliyatining yo`lga qo`yilishi rejalashtirilgan. Buning uchun O`zbekistonda imkoniyatlar va tajriba yetarli darajada. Shuning bilan bir qatorda joriy yilda “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi”ni barpo etish xususida bir qator faoliyatlar boshlab yuborildi.

Xususan, Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 19 maydagi “2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PP-2980-sonli qarori turizm va

turistik infratuzilmani rivojlantirishni qoʻllab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qildi.

Albatta turistik erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish infratuzilma, kadrlar salohiyati, hudud qulayliklari, turistik resurslarning salohiyatiga bogʻliqdir. Shu bilan bir qatorda bunday hududlarni tashkil qilishda erkinlik muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Siyosiy erkinlik emas, balki iqtisodiy erkinlik berilsa, soha rivojlanishi shuncha oson kechadi. Turizm respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xoʻjaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori oʻzining munosib oʻrniga ega boʻlishiga erishishimiz asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Hozirgi paytda dunyoda 7000 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar boʻlib, ular iqtisodiyotning turli sohalariga ixtisoslashgan. Rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham hududlarida, albatta turli maqsadlarni koʻzlab sayyohlikka ixtisoslashgan EIHlar vujudga keltirilmoqda. Bunda hal etiladigan aniq vazifalar orasidan quyidagilarni alohida koʻrsatish mumkin: maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilgʻor texnologiyalarni jalb etish, tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish, mamlakat va mintaqa byudjetiga valyuta tushumining oʻsishi, yangi ish joylarini yaratish, tashkil qilish, boshqarish va moliya sohasida jahon tajribasini oʻrganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirish. Umuman olganda, turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy hududlar ilmiy jihatdan kam oʻrganilgan sohalardan biridir.

Turizmga ixtisoslashgan EIHlarning uzoq muddatga moʻljallangan dasturini ishlab chiqishda xalqaro turizm rivojining asosiy yoʻnalishlari, muammolari va perspektivalarini chuqur oʻrganish talab qilinadi. Bundan tashqari, EIH yaratishda xorijiy tajribani oʻrganish ham zarur, ammo faqat unga tayanib hududni tashkil etib boʻlmaydi. Mahalliy ehtiyojlar va mahalliy shart-sharoitlarni chuqur oʻrganib hisobga olishga toʻgʻri keladi. Aks holda, aytgan natijaga erishib boʻlmaydi. Ushbu ilmiy ish aynan shu mavzudagi barcha

muammolarning imkoniyatli yechimlari va amaliy natijalariga bag`ishlangan bo`lib, kelajakda yurtimiz bo`ylab turistik erkin iqtisodiy hududlarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, turizmga ixtisoslashgan EIHni rejalashtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- rekreatsion imkoniyatlarning mavjudligi;
- arzigulik turistik ob`ektlarning mavjudligi;
- ish kuchining sifati, tarkibi;
- infrastuktura rivoji darajasi, tarkibi;
- transport, aloqaning rivojlanish darajasi.

Bunday ishlarni amalga oshirishda xorijiy tajribaga tayanish asosli bo`ladi. Bu shada ytuqlarga erishgan Italiya, Kipr, Gibraltal, Ispaniya, Iordaniya, Tunis, Izroil, Urugvay, Janubiy Koreya, BAA, Xitoy, Rossiya kabi qator davlatlar tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ular tashkil qilgan hududlar asosida bugungi kunda olinadigan daromad yuqoriligi, ish o`rinlarning ortishi, turizm faoliyatining to`xtamay mutaasil davom etishiga erishilgan. Masalan jahon tajribasidan TEIHLar yaratish orqali iqtisodiyotida o`shish kuzatilgan Xtoyda olib borilgan ishlar soha rivoji uchun juda katta hissa qo`shgan. Buni raqamlarda ham kuzatishimiz mumkin. 1979-2014-yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya`ni 195 AQSh doll.dan 3583 AQSh doll.ga o`sdi. 2010-yilga kelib YaIM hajmi bo`yicha Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo`ldi. 2015-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Xitoy umumiy eksportining 47,3% va importining 44,8%ini tashkil etgan. Ular yuqori texnologiyalar eksportida ham muhim rol o`ynaydi. Xitoy 2022 yilda 300 mln sayyoh uchun xizmat ko`rsatishni yo`lga qo`yish uchun harakatni boshlab yubordi.

Ilmiy ishda o`lkamizga keladigan sayyohlar oqimini keskin ko`paytirish va barqarorlashtirish uchun TEIHLar barpo etish kerakligini va buning uchun xorijiy tajribadan foydalangan holda hududlarni shakllantirish yo`llari, bunday

hududlarning maxsus hududlardan farqli tomonlari, tashkil qilishda etiborga olinishi lozim bo`lgan jihatlar, hududda mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish hamda “Boqiy Buxoro” turistik ekin iqtisodiy hududini shakllantirish bo`yicha takliflar ilmiy-uslubiy asoslab berilgan.

Shuningdek, dissertatsiya ishida O`zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning tashkiliy – huquqiy normativlari dasturini, Buxoro viloyati bo`yicha innovatsion ekoturistik loyihasini, “Boqiy Buxoro” TEIHududidagi sayyohlik xizmatlari va ularni tashkil etish shakllarini ishlab chiqish ishlari mukammal ilmiy tadqiq qilish zarurligini keng e`tirof etilgan. TEIHLarni barpo etish bo`yicha tavsiyalar berilgan. Jumladan, Buxoro erkin turistik zonasini tashkillashtirish hamda shakllantirishning innovatsion yo`llari ko`rsatilgan.

Erkin iqtisodiy hududlar tushunchasini to`laqonli anglagan holda, faoliyati tashkil qilingan turistik erkin iqtisodiy hududlarni tahlil qilib, O`zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida, sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga moslashgan turistik taklif tizimini shakllantirish bo`yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqildi. Bu orqali iqtisodiy o`shishga erishibgina qolmasdan, Buxoro turistik salohiyatini rivojlantirish, turizm potensialini oshirish yo`llarini taklif qilindi. Bundan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi:

- Erkin iqtisodiy hudud tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyatini o`rganish;
- O`zbekistonda faoliyati tashkil qilingan va qilinayotgan erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tahlil qilish;
- Turizm sohasida erkin iqtisodiy hudud tasnifini yoritish;
- Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish bo`yicha jahon tajribasini o`rganish;
- Jahon mamalakatlarida faoliyat yuritayotgan turistik erkin iqtisodiy hududlarni atroflicha tahlilini qilish;
- Turistik erkin iqtisodiy hudud barpo etishda Rossiya tajribasini o`rganib chiqish;
- Xitoy xalq respublikasi turistik erkin iqtisodiy hududlarini ko`rib chiqish;
- Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holatini o`rganish;

- Hududda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi” ni yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan faoliyatlar tahlilini olib borish;
- Buxoro turistik hududini takomillashtirish bo`yicha takliflarni taqdim qilish;

Belgilangan vazifalar yuzasidan dissertatsiya ishida ularni amalga oshirish yo`llari izohlab berildi. Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududini takomillashtirish bo`yicha quyidagilarni taklif qilmoqdamiz:

- Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududini oddiy shakldan kompleks turiga qarab rivojlantirish, bunda modulli tipdan foydalanish;

- Hududni chet ellik turistlarni qiziqtiradigan eski bozordan boshlab Buxoro tarixiy obidalari zich joylashgan eski shahardan qarshi darvozasigacha bo`lgan oraliqda tashkil qilish;

- Belgilangan hududda turizmga aloqasi bo`lmagan bino-inshootlarning sonini kamaytirib, aloqadorlarini qo`shimcha ravishda ko`chirish;

- Faoliyati joriy qilinishi rejalashtirilgan “Turizm politsiyasi”ni hududda jolashuvini ta`minlash masalalarini ko`rib chiqish;

- Buxoro turistik hududida joylashgan arxitektura va tarixiy yodgorliklarni asrash inspeksiyasini tashkil qilish;

- Buxoro turistik hududini ko`kalamzorlashtirish bo`yicha maxsus inspeksiya tashkil qilish;

- Hududda joylashgan tarixiy obidalar katalogini ishlab chiqish va uni boyitish bo`yicha komissiya tuzish;

- Hudud tashkil etilishida ishchi kuchining sifat darajasiga e`tiborni yanada kuchaytirish lozim;

- Hududda jahon standartlari talablariga javob bera oladigan ob`ektlarni qurish;

- Taklif qilinadigan turistik xizmatlar assortimentini rang – barang tarzda boyitishimiz lozim;

- Buxoro aeroportini xorijiy turistlar oqimiga mos ravishda rekonstruksiya qilish;

- TEIHga aloqador ba`zi qaror va farmonlarni ishlab chiqish va qabul qilish vakolatini turizmni rivojlantirish Davlat qo`mitasi Buxoro viloyat boshqarmasiga berish;

Yuqoridagilarning barchasi hudud turizm salohiyatini va potensialini oshirish uchun amaliy asos bo`lib xizmat qiladi. Buning uchun birinchi navbatda qabul qilingan farmon va qarorlar ijrosi ta`minlanishi lozim bo`ladi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, hozirda bunday hududlarning tashkil qilinishi sayohat qiluvchilarga yangicha kayfiyat, his hayajonni ulashishi bilan birga turoperatorlar biznesi ham rivojlanib, kengayishiga olib keladi. Turistik resurslarimizdan unumli foydalanish orqali ulkan yutuqlarga erishib, kelajakda katta miqdordagi xorijiy sayyohlarni ham jalb qila olamiz.

## ANNOTATION

**to Master's Dissertation work of Ruziyeva Gulinoz - student of 2<sup>nd</sup>-course-master student of Faculty of Tourism, 5A610301 -Tourism (International and Internal Tourism) of Bukhara State University on the theme of**  
***“Establishing tourism free economic zone”***

Many resources to attract foreign visitors in Uzbekistan (archaeological sites, monumental works of art, architectural monuments, modern hotels and restaurants, transport and communication services) - are important for the active development of tourism.

Free economic zone has a special status, administratively, sometimes geographically identified area and aims at equipment targeted to the production of export and free import of other goods. Touristic FEZ is specialized in the areas of tourism and the objective to create them – is to meet the growing needs of international tourism and to build touristic objects in order to stabilize the inflow of tourists in the country and to attract foreign partners in exploitation.

The legendary history, the historical and engineering heritage of the Silk Road, wonderful landscapes of nature, local crafts passing from generation to generation, the hospitality of people and human values of Uzbekistan which amaze tourists, fascinate and at the same time makes them happy attracts people from all its corners.

At the Present time, 3 free economic zones are established in Uzbekistan and again such 4 zones are planned to be established in 2017. For this, Uzbekistan has enough opportunities and experience. Along with it, this year a number of activities have been launched in building "Bukhara touristic free economic zone".

In particular, Resolution No PP-2980 of the President SH. M. Mirziyoyev, dated on 19 May in 2017, "About measures of the rapid development of the tourism potential of Bukhara region and the city of Bukhara in 2017-2019 years" served in supporting the development of tourism infrastructure, in the active introduction of the national touristic services to international touristic markets.

Of course, touristic free economic zones depend on infrastructure, potential of human resources, the region opportunities, potential of touristic resources in establishing them. Along with it, freedom is an important factor in the organization of such zones. Not political freedom, but if economic freedom is given, the development of the sector goes so much easier. One of our main objectives is to make tourism to have its appropriate role in the economy of the republic, along with agriculture, industry, transport and other macroeconomic sectors.

Nowadays, more than 7,000 free economic zones exist in the world; they are specialized in various sectors of the economy. Both developed countries and developing countries are creating touristic FEZ in their territories by aiming at various goals, of course. In this, among the specific tasks which will be solved, following may be separately shown: special privileges, to attract foreign capital and advanced technologies due to a stable legal base and simplification of organizational procedures, to take advantages of the division of labor due to the expansion of the export of finished products, the growth of currency earnings to the budget of country and region, creation of new job places, organization, management and improve the skills of labor force through the study of foreign experience in financial sector and the introduction of international experience. In general, free economic zones specialized to the tourism are scientifically one of the least studied areas.

It is required to study in-depth the main international tourism trends, problems and perspectives in the development of a long-term program of FEZ specialized at tourism. In addition, studying the international experience is also necessary in the creation of FEZ, but area cannot be built by relying on them. Local needs and local conditions should be taken into account through deep study. Otherwise, the results will not be achieved. This research was devoted to possible solutions of all problems and its practical results in this topic and it serves to the development of touristic free economic zones across our country in the future.

In this point of view, the following should be considered in planning FEZ specialized at tourism:

- recreational opportunities;
- worth touristic facilities;
- the quality, content of labor force;
- the level of infrastructure development, structure;
- the level of development of transport and communication.

It is convincing to rely on foreign experience in implementing such works. Using from experience of Italy, Cyprus, Gibraltar, Spain, Jordan, Tunis, Israel, Uruguay, South Korea and the United Arab Emirates, China, Russia and a number of other countries' experience is desirable. On the basis of their created zones, nowadays, unstoppable continue is achieved in high income, increase of vacancies, tourism activity. For example, from the foreign experience, works carried out in China which is the growth is observed in its economy through the creation of FEZ, contributed very large for the development of the sector. It also can be seen in figures. In 1979-2014 years, China's per capita GDP rose about 16 times, or from 195 USA dollars to 3583 USA dollars. In 2010, it left behind Japan on the volume of GDP, it has become the world's second largest economy. During this period, more than 500 million people got rid of poverty. In 2015, enterprises with foreign investments in China made up 47.3% of total export and 44.8% of import. They play an important role in high-tech export too. China began the movement for the establishment of services for 300 million tourists in 2022.

In the scientific work, proposals are scientifically-methodologically grounded on increasing the flow of tourists to our country and the necessity to build FEZ for stabilizing and for this, the ways of the formation of areas by using from international experience, differences of such areas from special areas, aspects which should be taken into attention in organizing, to attract local and foreign tourists in the country as well as forming "Eternal Bukhara" touristic free economic zone.

In addition, in the dissertation work it is widely recognized the need for comprehensive scientific research in the organizational and legal norm program of the development of the tourism sector in Uzbekistan, innovative ecotourism project in Bukhara region, touristic services in "Eternal Bukhara" TFEZ and the development work of its forms of organization. The recommendations are given to build TFEZ. In particular, innovative ways of the formation and the organization of free touristic zone of Bukhara are presented.

Fully aware of the concept of free economic zones, by analyzing touristic free economic zones which activities are organized, in order to further develop tourism sector in Uzbekistan, scientific and practical suggestions and recommendations are developed in forming the touristic offer system which is adapted to meet the needs of tourists. Not only economic growth is achieved, but the ways of the development of the touristic potential of Bukhara, increasing tourism potential are offered. Furthermore, based on this, the following tasks are determined:

- To study the concept of free economic zone and its economic significance;
- To analyze the activity of organized and being organized free economic zones in Uzbekistan;
- To clarify the description of free economic zone in tourism sector;
- To study world experience in the creation of touristic free economic zone;
- The detailed analysis of touristic free economic zones operating in foreign countries;
- To study Russia experience in the creation of touristic free economic zone;
- To preview touristic free economic zones of the People's Republic of China;
- To study the status of the development of the tourism industry in Bukhara;
- To make measures of development of tourism in the region;

- To carry out analysis of activities in creating "Bukhara touristic free economic zone";

- To provide suggestions for improving the touristic zone of Bukhara;

The ways of their implementation is explained in the dissertation work regarding the determined tasks. The following is offered on improving touristic free economic zones of Bukhara:

- To develop touristic free economic zones of Bukhara from simplest form, depending on the complex type, to use from modular types;

- To organize in the interval beginning from old market which interests foreign tourists, from historical monuments of Bukhara that is located in the old city till Karshi gate;

- To reduce the number of buildings which have no connection to tourism in the specified area and additionally transfer buildings which have connection to tourism;

- To review provision issues of the location of "Tourism police" which is activity is planned to be introduced in area;

- To organize the protection inspection of architectural and historical monuments located in

touristic area of Bukhara;

- To organize special inspection on greening of the touristic zone of Bukhara;

- To develop the catalog of historical monuments located in the area and making commission for its enrichment;

- More attention should be paid to the quality level of labor force in the establishment of area;

- To construct facilities which meet international standards in the region;

- The range of proposed touristic services should be enriched in colorful way;

- To reconstruct Bukhara airport in accordance with the inflow of foreign tourists;

- To develop some decisions and decrees related to TFEZ and the authority of adoption should be given to the Department of Bukhara region of the State Committee of tourism development;

All of the above serves as a practical basis for development of tourism potential of the region. To do this, first of all, the implementation of decrees and decisions should be ensured.

In summary, currently, the organization of such areas brings tourists new mood, along with the share of excitement, it leads to the development and expansion of tour operators business. Great success will be achieved through the effective use from our touristic resources and we can attract a large number of foreign tourists in the future.

## Mundarija:

<b>Kirish</b> .....	15
<b>I bob. Turistik erkin iqtisodiy hududlarning nazariy asoslari</b>	
1.1. Erkin iqtisodiy hudud tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati .....	22
1.2. O`zbekistondagi erkin iqtisodiy hududlar, ularni yaratish muammolarini o`rganishning nazariy-metodologik asoslari .....	32
1.3. Turizm sohasida erkin iqtisodiy hudud tasnifi.....	39
<b>I bob bo`yicha xulosa</b> .....	44
<b>II bob. Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish bo`yicha jahon tajribasi</b>	
2.1. Jahon mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan turistik erkin iqtisodiy hududlar.....	46
2.2. Turistik erkin iqtisodiy hudud barpo etishda Rossiya tajribasi.....	58
2.3. Xitoy xalq respublikasining turistik erkin iqtisodiy hududlari.....	66
<b>II bob bo`yicha xulosa</b> .....	86
<b>III bob. Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish zarurati va imkoniyatlari</b>	
3.1. Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holati .....	88
3.2. “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi”ni yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili.....	92
3.3. Buxoro turistik hududini takomillashtirish bo`yicha takliflar.....	97
<b>III bob bo`yicha xulosa</b> .....	104
<b>Xulosa va takliflar</b> .....	105
<b>Adabiyotlar ro`yxati</b> .....	107
<b>Ilovalar</b> .....	

## Kirish

XXI asrga kelib, turizm sanoati o'zining qanday kuchga ega ekanligini ko'rsatdi. Butun jahon turizm tashkilotining ma'lumotiga ko'ra jahonda va yurtimizda ham sayyohlik sanoati yildan yilga rivojlanib iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan yuksalishlarga erishmoqda. Shu munosabat bilan Birlashgan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi 2017-yilni Xalqaro Turizm yili deb e'lon qildi. Ushbu qaror 2015- yilning 4-dekabr sanasida qabul qilinib, "Turizmning nechog'lik ahamiyatga ega ekani va millatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka xizmat qilishi, bir-birining boy madaniy va tarixiy me'rosi haqida to'laqonli ma'lumotga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. O'z navbatida, turizm boshqa mamlakat, millatlar qadriyatlariga hurmat uyg'otadi va bu orqali dunyoda tinchlikning mustahkamlanishini ta'minlaydi".

Xalqaro turizm yilida mamlakatimizda sohaning rivoji uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan Buxoroda mazkur sohaning rivoji uchun tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida tizimda tub o'zgarishlar ko'zda tutilmoqda. Buxoro viloyatida 2017-2021 yillarga turizm sohasini rivojlantirish Dasturiga muvofiq yangi 39 ta loyihalarning hayotga tadbiriq etilishi rejalashtirilgan. Ushbu Dastur bandlarini amalga oshirish uchun jami 18,5 milliard so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan.

Ko'zda tutilgan rejaga ko'ra, viloyatimizga sayyohlar oqimi jihatidan ustuvor hisoblangan Rossiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Yaponiya, Koreya, Xitoy kabi mamlakatlar bilan faol va maqsadli tadbirlar o'tkazish hisobiga 5 yil ichida xorijdan sayyohlar oqimini yiliga 350-500 minggacha, jumladan islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatlardan 100 minggacha (umumiy oqimning 20%i), MDH davlatlaridan 125 minggacha (25%) yetkazish, hamda bir vaqtning o'zida ichki turizmni rag'batlantirish hisobiga mahalliy sayyohlar sonini Buxoro viloyati aholisidan tashqari 500-750 minggacha yetkazish

rejalashtirilmogda. Oldinga qo`yilgan bunday maqsadlar mamlakat iqtisodiy rivoji uchun ham xizmat qilishi shubhasizdir.

**Ishning dolzarbligi.** Afsonaviy o`tmishi, Ipak Yo`lining tarixiy-muhandislik merosi, tabiatining ajoyib manzaralari, avlodan-avlodga o`tib keluvchi mahalliy hunarmandchilik, xalqning mehmondo`stligi va insoniy qadriyatlari bilan sayyohlarni hayratga soluvchi, mahliyo qiluvchi shu bilan birga ularni xursand etuvchi O`zbekiston barcha burchaklaridan kishilarni o`ziga jalb etadi. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda turistlarni mamlakatimizning barcha jabhalariga jalb qilish lozim. Magistirlik dissertatsiyasi milliy iqtisodiyotimiz uchun dolzarb bo`lib, turistik erkin iqtisodiy hududlar barpo etish masalasiga bag`ishlangan.

Ayni paytda mamlakatimizda turizm sohasiga e`tibor kuchayib bormogda. Xususan prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan sohaga oid qaror va farmonlar bunga yaqqol misol bo`la oladi. Turizm sohasining ulushi iqtisodiyotimizning uchdan bir qismini tashkil qilar ekan, uni rivojlantirish orqali bu ulush hissasini yanada oshirish, chetdan kirib keladigan investitsiyalar hajmini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy rivojini taminlash mumkin.

Bugungi kunda O`zbekistonda bir qator erkin iqtisodiy hududlar faoliyati yo`lga qo`yilgan hamda 2017 – yilda yana 4ta bunday hudud faoliyatining yo`lga qo`yilishi rejalashtirilgan. Buning uchun O`zbekistonda imkoniyatlar va tajriba yetarli darajada. Shuning bilan bir qatorda joriy yilning birinchi kvartali davomida “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi”ni barpo etish xususida qonun hamda farmonlar qabul qilindi. Bunday hududlarni barpo etish borasida esa mamlakatimizda tajriba yetarli darajada emas. Sababi Shundaki bunday hududlarning faoliyati yuritilmagan, ularni tashkil etishda esa bir qator muammolargaa duch kelish mumkin. Bunda asosan jahon tajribasini o`rgandan holda, mahalliy sharoitdan kelib chiqish asosiy masala bo`lib hisoblanadi.

**Tadqiqot obykti va predmeti.** Turitik erkin iqtisodiy hududlar, turistik oqimlar va ularning talab va ehtiyojlarini qondirishda qatnashadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlari tadqiqot obykti hisoblanadi.

Hududlardagi turistik taklif tizimlarini shakllantiruvchi va ularni ichki turizmga moslashtirishga qaratilgan jarayonlar, turistik erkin iqtisodiy hududlarni yurtimiz bo`ylab rivojlantirish uchun zaruriy innovatsion turistik dasturlarning yaratilish texnikasi va noan`anaviy turistik komplekslarni qurish loyihalari tadqiqot predmeti hisoblanadi.

**Ishning maqsadi va vazifalari.** Erkin iqtisodiy hududlar tushunchasini to`laqonli anglagan holda, faoliyati tashkil qilingan turistik erkin iqtisodiy hududlarni tahlil qilib, O`zbekistonda turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida, sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga moslashgan turistik taklif tizimini shakllantirish bo`yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish. Bu orqali iqtisodiy o`shishga erishibgina qolmasdan, Buxoro turistik salohiyatini rivojlantirish, turizm potensialini oshirish yo`llarini taklif qilish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilandi:

- ✓ Erkin iqtisodiy hudud tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyatini o`rganish;
- ✓ O`zbekistonda faoliyati tashkil qilingan va qilinayotgan erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tahlil qilish;
- ✓ Turizm sohasida erkin iqtisodiy hudud tasnifini yoritish;
- ✓ Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish bo`yicha jahon tajribasini o`rganish;
- ✓ Jahon mamalakatlarida faoliyat yuritayotgan turistik erkin iqtisodiy hududlarni atroflicha tahlilini qilish;
- ✓ Turistik erkin iqtisodiy hudud barpo etishda Rossiya tajribasini o`rganib chiqish;
- ✓ Xitoy xalq respublikasi turistik erkin iqtisodiy hududlarini ko`rib chiqish;
- ✓ Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holatini o`rganish;
- ✓ Hududda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- ✓ “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi” ni yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan faoliyatlar tahlilini olib borish;

- ✓ Buxoro turistik hududini takomillashtirish bo`yicha takliflarni taqdim qilish;
- ✓ Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish bo`yicha ko`rsatmalarni tavsiya qilish.

**Ilmiy yangiligi.** O`zbekistonda mavjud erkin iqtisodiy hududlarni o`rganib chiqish. Erkin iqtisodiy hudud tushunchasining mohiyatini to`liq anglagan holda, jahonda faoliyati tashkil qilingan turistik erkin iqtisodiy hududlar tajribasini tahlil qilish. Tahlillarga asoslangan holda mavjud imkoniyatlardan foydalanib O`zbekistonda TEIHLarni barpo etish yo`llarini o`rganish.

Jumladan, Buxoro viloyatida yaratilishi rejalashtirilayotgan “Boqiy Buxoro” TEI hududida Buxoroning qadimiy va an`anaviy ko`rishini gavdalantirish uchun xizmat qiladigan takliflar bildirish hamda mavjud hudud loyihasini ishlab chiqish. Mazkur takliflar hamda loyihaning taklif etilayotgan maketini turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi Buxoro viloyat boshqarmasiga taqdim etish. Buxoro viloyatida mavjud rekreatsion turistik resurslaridan oqilona foydalanish, mahalliy sayyohlar oqimini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Bizning ishimizda Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududini oddiy shakldan kompleks turiga qarab rivojlantirish, bunda modulli tipdan foydalanish masalalariga alohida e`tibor qaratilgan.

**Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi.** Ilmiy ishning nazariy va uslubiy jihatlari, xorijiy olimlardan Danko T., Okrut Z., Smorodinskaya I, Babinsev V, Valliulin X., Andreev V., Leusskiy A., Avdokushin E., Siplakov S., Y.Komlev, K.A.Semenov va boshqalarning ilmiy asarlarida yoritib berilgan.

O`zbekiston sharoitida turizm sohasi rivojini o`rganishda N.To`xliyev, T. Abdullayeva, M.Xoshimov, I.Ibrohimov, Z.Izzatullayev, A.Nig`matov, M.Mamanazarov salohiyatini o`rganishda faoliyati tashkil qilingan erkin iqtisodiy hududlarni o`rganishda Respublika qonunlari, D.R. Suyarov, M.X.Xamitov, G.R.Xidirova, N.O`.Mahmudova, Sh.Jo`rayeva, I.Ibrohimov, Z.Izzatullayev, A.Nig`matov, M.Mamanazarov, Y.Sh.Shodmetov va

boshqalarning hissasi katta bo`lib, ular mazkur sohaning istiqbolli imkoniyatlari, uni boshqarishning nazariy va amaliy asoslari hamda rivojlantirish yo`llarini o`zlarining asarlarida yoritganlar.

**Tadqiqot metodlari.** O`zbekiston Respublikasining sohaga oid qonunlari, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, O`zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi tomonidan ishlab chiqilgan me`yoriy hujjatlar, turizmni rivojlantirish Davlat qo`mitasi Buxoro viloyat boshqarmasi qonunlari kabilarga tayaniladi. Unda guruhlash, taqqoslash, sistemali yondashish, SWOT-tahlil, analiz va sintez kabi usul va uslublardan foydalaniladi.

**Ilmiy ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida Buxoroda joriy yilda turizm sohasida amalga oshirilgan faoliyatlar tahlili olib farmon va qarorlarning samarasi keng yoritilgan.

Shu bilan bir qatorda, Buxoroda bo`lib o`tgan an`anaviy XVI an`anaviy “Ipak va ziravorlar” xalqaro turizm festivali doirasida tashkil qilingan “Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududni yaratish imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi III ilmiy amaliy konferensiyada “Buxoro turistik erkin iqtisodiy zonasini yaratishning ilmiy – amaliy jihatlari” mavzusidagi maqola tayyorlangan. Shu maqola yuzasidan konferensiyada so`zga chiqib, konferensiyaning xorijiy hamda mahalliy a`zolariga mavzu mohiyati tuShuntirib berishga harakat qilingan. Unda TEIHlar barpo etishda Xitoy tajribasini qo`llash masalasiga alohida to`xtalib o`tilgan.

Buxoro turistik hududini takomillashtirish bo`yicha takliflar tayyorlandi. Tayyorlangan takliflar yuzasidan loyiha ko`rinishi ishlab chiqiqilib, nazariyada amaliyotda qo`llash taklifi bildirildi. Unda BTEIH barpo etishda jahon tajribasiga asoslangan holda takliflar berililgan (ilovalar taqdim etilgan). Ishlab chiqilgan takliflarning amaliy ahamiyati Shundaki, qabul qilingan konsepsiyaga qo`shimcha bildirilgan takliflar orqali yangi turistik markazlar barpo etiladi, mavjudlari rekonstruksiya qilinadi, shahar obod bo`lishi bilan bir qatorda mavjud turistik salohiyat to`laqonli tiklanadi. Bundan tashqari potentsiali mavjud

turistik resurslarni aniqlab, investitsion loyihalarni tuzish va amalga oshirish evaziga yangi ish o`rinlari paydo bo`ladi, hudud iqtisodiy jihatdan rivojlanadi, mahalliy sayyohlar bilan bir qatorda xorijiy sayyohlar ehtiyojlari qondiriladi va davlat budjetiga tushadigan mablag`lar oshishiga erishiladi.

Tadqiqotlar olib borish jarayonida Buxoroda qurilishi rejalashtirilgan “Boqiy Buxoro” hududi loyihasi ishlab chiqildi. Bidirilgan takliflardan chiqarilayotgan ilmiy xulosalar turizmga ixtisodlshtirilgan erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish uchun to`la ilmiy tahlil qilishda nazariy qo`llanma bo`lishi mumkin.

**Dissertatsiya ishi bo`yicha chop etilgan ilmiy ishlar:** Ilmiy tadqiqot natijasi bo`yicha 5 ta ilmiy tezis hamda maqolalar, shu jumladan, 1 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjuman to`plamida, 1 ta DAK ro`yxatida turuvchi ilmiy texnikaviy jurnalda, 1 ta “Ipak va ziravorlar” xalqaro turizm festivali doirasida tashkil etilgan an`anaviy III ilmiy amaliy konferensiyada va 2 ta Buxoro davlat universiteti magistrlarning maqolalar top`lamida chop etilgan.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Qo`yilgan maqsad va vazifalar izlanishning mantig`ini aniqlashda va dissertatsiya tarkibida o`z aksini topdi. Dissertatsiya kirish uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyada 19 ta chizma, 10 ta jadval, 21 ta rasm, 1ta turistik erkin iqtisodiy hudud loyihasidan iborat. Dissertatsiya ilova va annotatsiyadan tashqari-79 betdan iborat. (16.06.17 sanasi b.n)

*Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, uning o`rganilganlik darajasi, ishning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi, tadqiqot maqsadi, nazariy, metodologik va uslubiy asoslari, predmeti, obykti, ilmiy yangiligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi hamda dissertatsiyaning aprobatsiyasi bo`yicha ma`lumotlar bayon qilingan.*

Dissertatsiyaning “*Turistik erkin iqtisodiy hududlarning nazariy asoslari*” deb nomlangan birinchi bobida erkin iqtisodiy hudud tuShunchasiga to`xtalib o`tish bilan bir qatorda, O`zbekistonda faoliyati tashkil qilingan erkin iqtisodiy hududlar, ularni yaratish muammolarining nazariy-metodologik asoslari ochib

berilgan. Unda turizm sohasida erkin iqtisodiy hudud tasnifiga alohida e`tibor qaratilgan. Bunda turistik erkin iqtisodiy hududning maxsus hududlardan farqli tomonlariga alohida e`tibor berilgan.

*“Turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish bo`yicha jahon tajribasi”* deb nomlangan ikkinchi bobda jahon mamalakarida faoliyati tashkil qilingan Dubai, Latviya, Tunis, Kobuletti, Mersin, Filippin, Burgas, Aruba kabi turistik erkin iqtisodiy hududlar faoliyati o`rganilishi bilan bir qatorda TEIH barpo etishda Rossiya tajribasi hamda Xitoy xalq respublikasidagi turistik erkin iqtisodiy hududlarga chuqurroq to`xtalib o`tilgan. Ularning faoliyati nisbatan O`zbekiston hududi uchun yaqinroq deb baho berilgan.

*“Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hudud yaratish zarurati va imkoniyatlari”* deb nomlangan uchinchi bobda TEIH barpo etishda hamda turizmni rivojlantirishda turistik mamlakatlar tajribalarini qo`llash imkoniyatlarini qo`llash, Buxoroda turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, BTEIHiini yatarish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlil qilingan. Mazkur bobda buxoro turistik hududini barpo etish bo`yicha takliflar berilgan.

*Dissertatsiyaning xulosa qismida* tadqiqot jarayonida olingan asosiy xulosa va takliflar berilgan.

*Ilovalar qismi* ilmiy maqola va tezislardan tashkil topgan.

## **I BOB. TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING NAZARIY ASOSLARI**

### **1.1. Erkin iqtisodiy hudud tuShunchasi va uning iqtisodiy mohiyati**

Erkin iqtisodiy hudud (keyingi o`rinlarda EIH) - bu maxsus maqomga ega bo`lgan ma'muriy jihatdan, ayrim holda geografik jihatdan aniqlangan maydon bo`lib, eksport ishlab chiqarishga mo`ljallangan uskuna va boshqa tovarlarni erkin import qilishni ko`zda tutadi.

EIH - bu iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga ta'sir etish, bandlik darajasini saqlash va ko'tarish maqsadida milliy qonunchilikning ayrim bandlari harakat qilishdan to'xtatilgan rayondir.

EIH kategoriyalarini aniqlashda turli qarashlar mavjud. Munozaralar asosan ikki muamoni tahlil qilishga borib taqaladi:

- umumlashtiruvchi tuShuncha sifatida terminni tanlash;
- hodisani kengroq, to'laroq ochib berish maqsadida uning aniq izhorini topish.

EIHLarning turli-tumanligi hamda mamlakatlardagi har xil sharoitlar tufayli o'ziga xosliklarini inobatga olib, Shuni aniq aytish mumkinki, biror-bir iqtisodiy kategoriya, termin bu kabi murakkab iqtisodiy faoliyatni mohiyatini ochib bera olmaydi. Rivojlangan mamlakatlarda, ancha keng tarqalgan "erkin iqtisodiy hudud" (Free economic zone) termini eng maqbul hisoblanadi. Jahon tajribasida «erkin iqtisodiy hudud» termini ko'pchilik tomonidan qabul qilingan termin hisoblanadi.

EIH kategoriyasining eng keng tarqalgan va tan olingan ta'rifi Kioto konvensiyasida 1973 yilda berilgan edi: «Erkin iqtisodiy hudud» deganda mamlakat territoriyasining bir qismi bo`lib, unga keltirilgan tovarlar bojxona chegarasidan tashqarida deb hisoblanadi, demakki, odatdagi bojxona nazoratiga, soliqqa solishga tortilmaydi. Albatta, keyingi 30 yillik taraqqiyot natijasida bunday qarash yetarli emasligi aniq bo`ldi.

«Erkin iqtisodiy hudud» termini tahlil qilinayotgan iqtisodiy hodisaning qirralarini to'laroq ochib beradi:

-Mamlakatning qolgan qismidan iqtisodiy jihatdan ajralganlik holatining mavjudligi;

-Xorijiy va milliy tadbirkorlar uchun alohida iqtisodiy muhitning mavjudligi (imtiyozli bojxona, soliq, ijara, valyuta, mehnat va boshqa tartiblar). Uning ta'siri ostida «iqtisodiy muhitning» qarshilik qilishi kamayib ketadi.

Kioto konvensiyasi qabul qilingach, keyingi 30 yillik taraqqiyot natijasida EIH kategoriyasi borasidagi bilimlar ancha kengaydi, boyidi, uning turli xil shakllari kashf etildi. Jumladan, Simazdaki fikri: "EIH - bu iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga ta'sir etish, bandlik darajasini saqlash va ko'tarish maqsadida milliy qonunchilikning ayrim bandlari harakat qilishdan to'xtatilgan rayondir". EIH, bu xorijiy kapital bilan birgalikda faoliyat olib borishni rag'batlantirish uchun valyuta, moliya va soliqlarning imtiyozli tartibga ega bo'lgan maxsus territoriyadir, degan fikrlar bilan boyidi.

EIHLarning hozirgi taraqqiyoti Shuni ko'rsatmoqdaki, tartibning biror xil turi bo'lishi shart emas (masalan, EIHLarning boshlang'ich bosqichida katta ahamiyatga ega bo'lgan imtiyozli soliq tartibi offshor hududlari uchun ahamiyatli emas). Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy ixtisoslashtirish EIHda albatta ustuvor bo'lishi ham shart emas (masalan, AQSH, Buyuk Britaniya va boshqa ilg'or davlatlardagi ko'pgina erkin tadbirkorlik hududlari yoki texnoparklar).

Erkin iqtisodiy hududning eng muhim belgisi haqida ham turli xil fikrlar bor: Masalan, Ovchinnikova S.G. "erkin tadbirkorlik hududi" termini ma'qul ko'radi, Andreev V., Leuskiy A. kabilar «o'ziga xos bojxona tartibi» deb hisoblashsa, Smorodinskaya I, Babinsev V, Valliulin X. kabilar uchun eng muhimi imtiyozlardir, deb hisoblashadi. Avdokushin E., Siplakov S. kabilar esa eng muhimi imtiyozli investitsiya muhitini ajratib ko'rsatadilar. Y.Komlev EIHLarning muhim xususiyatlaridan biriga ma'muriy muolajalarni minimumga keltirilganligini ta'kidlaydi. Ammo, buni faqat eksport faoliyati bilan bog'laydi. Danko T. va Okrut Z. lar asosiy belgilarni ajratishda kompleks yondashganlar. Ular EIHni konkret iqtisodiyot, mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarining joylashtirilishi, EIHda yaratilgan yalpi mahsulotning ishlab chiqarilishi va

taqsimlanishi nuqtai nazaridan, EIHning diffuzion holatda kengayish (boshqa, qo'shni territorialarga) va tarqalish (boshqa tarmoq va xo'jalik faoliyati turlariga) qobiliyati nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar.

EIHning eng muhim belgisi avvalo **erkinlik** bo'lib hisoblanadi. Tanlash erkinligi, faoliyat erkinligi, fikrlashning erkinligi – filosoflar, olimlar iqtisodchilar, siyosatchilar asrlar davomida bosh qotirib kelayotgan masalalardir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, EIH «erkinligi» tovarlar uchun bojxona bojidan, importning solig'idan, boshqa turdagi moliyaviy nazorat turlaridan ozod qilinish deganidir. Ammo, ishlab chiqarish, ijtimoiy soha, jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan boshqa tur soliqlar, atrof-muhit muhofazasi va xavfsizligi kabilarga tegishli bo'lgan boshqa qonun, yo'riqnoma va qoidalar ushbu hududlarda to'liq amal qiladi. Bundan tashqari, erkinlik sharoitida ingliz olimi Rotbard aytganidek, hamma yutadi, davlat, hokimiyat hukmronlik qiladigan sharoitda esa ayrim kishilar boshqa birovlar hisobidan yutadi, xolos. Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon taraqqiyoti Shundan dalolat beradiki, erkinlik bo'lmasa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bo'lmaydi.

EIH mamlakat (yoki bir guruh mamlakatlarning) xo'jalik kompleksining tarkibiy qismi bo'lgan mustaqil davlatning (yoki bir guruh davlatlarning) maydoni tuShuniladi. Bu maydonda aniq bir umummilliy manfaatlarga, korporativ maqsadlarga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning maxsus mexanizmlaridan foydalanishdan iboratdir. Bunda Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish mexanizmi qonun yo'li bilan mustahkamlangan bo'lishi shart hamda bu maxsus tartib, imtiyozlar tizimi aniq bir territorialyada, aniq bir faoliyat turlari bilan belgilangan bo'lishi kerak.

EIH hududni eng muhim 4 ta xususiyatini ajratish mumkin, ya'ni aniq bir territorialyaga egaligi, imtiyozlar tizimi, anklavlik holati, xo'jalik faoliyatiga davlat organlarning aralashmasligi yoki iqtisodiy erkinlikning nisbatan ko'pligi. Jahon tajribasi Shuni ko'rsatadiki, Shu to'rtinchisi juda muhimdir. Busiz hududning alohidaligi ro'yobga chiqmaydi. EIHning eng muhim xususiyatini

quyidagicha ta'riflash mumkin: «iloji boricha davlatning kam bo'lishi va bozorning esa ko'p bo'lishi».

EIH konsepsiyasida tadbirkorlik tizimi faoliyatining optimal sharoitlari to'g'risidagi tushunchalar uzviy ravishda asos qilib olingan:

- xo'jalik faoliyatini minimal ravishda reglamentlash;
- bojxona to'siqlarini minimumga keltirish;
- eksport-importda cheklashlar yo'qligi yoki kamligi;
- minimal valyuta nazorati;
- insofli, minimal soliq solish;
- sug'urtalash erkinligi, imtiyozliligi;
- baho belgilash erkinligi;
- kredit tizimini imtiyozligi, qulayligi;
- personalni ishga olish, haydash masalalarida tadbirkorning erkinligi.

Xulosa qilib aytganda, EIHLar doimo rivojlanuvchi va takomillaShuvchi iqtisodiy strukturalardir. Ular juda qadimiy zamonlarni, sanoat to'ntarilishini va ilmiy - texnika revolyusiyasini yaqqol aks ettiradi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ilmiy-texnika revolyusiyasi EIHLarning «texnopolis», «innovatsion markazlar», «texnopark» kabilarni tug'dirdi. Eng yangi tiplari zoopolis, agropolis, noopolis, informatsion hududlar XX asr oxirida paydo bo'ldi, ular uchinchi ming yillikka yo'l ochmoqda. Ularning kelajagi porloq deb bashorat qilinmoqda. Hozirgi zamon EIHLari uzoq taraqqiyot yo'lida yig'ilgan ijobiy tajribani o'zida mujassamlashtirib, eng yangi eksport-ishlab chiqarish mohiyati va ish tajribasi bilan boyib bormoqda. Ularni yaratish iqtisodiyotni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatni aktivlashtirishga qaratilgan. Bunday hududlar iqtisodiyoti jahon bozoriga yuqori darajada ochiqlikka ega, ularning bojxona va soliq tartibi esa milliy va xorijiy investitsiyalarga o'ta qulay hisoblanadi.

Jahon tajribasi Shuni ko'rsatmoqdaki, EIHLarning nomlanishi juda ko'p, ammo eng to'g'ri, kengroq ma'noga ega bo'lgan nom - erkin iqtisodiy hudud.

Hudud boshqa territoriyaga nisbatan, avvalambor, erkinlik darajasi yuqoriligi bilan farq qiladi. Bundan tashqari, bu hudud siyosiy emas, balki iqtisodiy erkinlikka ega bo'lgan maydondir. Professor K.A.Semenov ta'kidlaganidek, EIH davlatning alohida territoriyasi ekanligi absolyut emas, nisbiy xarakterga ega. Bu maydonning erkinligi iqtisodiy jihatdan erkinlikdir, ya'ni bojxona to'lovlarini to'lashdagi yengilliklar, import qilishda, soliq to'lashda yengilliklardan iborat. Qonunlar tovar ishlab chiqaruvchilar, investorlarni mamlakatda mavjud iqtisodiy, huquqiy tartibdan ozod qilmaydi, faqat uni yengillashtiradi. Boshqa so'z bilan aytganda, EIH Shunday anklavki, unda iqtisodiy jarayonlarga tanlab olingan tarzda davlat aralaShuvi qisqartiriladi, davlatning boshqa territoriyalarida foydalanilmaydigan aniq bir imtiyozlar tizimi qo'llaniladi.

EIH - savdo, moliyaviy, ishlab chiqarish, texnologik kabi aloqalar (munosabat)ning o'ta konsentratsiyalashgan o'chog'idir. Unda tadbirkorlik, bozor munosabatlari rivojlanishi juda yuqori darajada bo'ladi. EIHlar boshqarish mexanizmi va ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashadigan joyi hisoblanadi. Ular o'ziga xos «tijorat markazlari» sifati planeta miqyosida tovar ayirboshlanishini jadallashtiruvchi va tashqi savdoni rag'batlantiruvchi kuchli omildir.

EIH murakkab tashkilot bo'lib, u quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- o'zaro bir-biri bilan bog'langan maqsadlar to'plamiga egaligi;
- natijaga erishish uchun resurslarning mavjudligi (kadrlar, kapital, materiallar, texnologiyalar va informatsiya);
- tashqi muhitga bog'liqligi (iqtisodiy sharoitlar, iste'molchilar, kasaba uyushmalari, qonunchilik, raqib tashkilotlar, jamiyatdagi qadriyatlar tizimi, texnika va texnologiyalar);
- gorizontal va vertikal mehnat taqsimoti mavjudligi;
- aniq, maxsus vazifani bajaruvchi va aniq, maxsus maqsadlarga eriShuvchi bo'limlarning mavjudligi;
- boshqarish va tartibga solishning zarurligi.

EIHning qaysi turini yaratishdan qat'iy nazar qisqa vaqt ichida xalqaro xo'jalik aloqalar sohasida hozirgi zamonga mos bo'lgan ishlab chiqarish infrastrukturasi o'sib, shakllanadi. Hududda yangi, ilg'or texnikani qabul qilish shart-sharoitlari yaratiladi, infrastrukturaning xorijiy uskunalarga muvofiqligi oshadi. Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan mamlakatga yuqori texnologik uskunalarning kira olmasligining asosiy sababi bartaraf qilinadi. Bu esa o'ta muhimdir.


EIH – bu hamma vaqt milliy territoriyaning kichik bir qismi, uning iqtisodiy potentsiali esa hamma vaqt mamlakatning umumiy holatidan ajratib turadigan maxsus vazifa (yoki vazifalar)ni bajarishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga, EIH mamlakatni ishlab chiqaruvchi kuchlarini optimal joylashtirish va uni jahon xo'jaligiga integratsiyalaShuvi muammolarini hal qiluvchi muhim vosita ham hisoblanadi. EIH uchun butun mamlakatdan farq qiladigan zaruriy va qo'shimcha mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlash munosabatlari xarakterlidir. Bu munosabatlar ushbu mamlakatda hukmron bo'lgan munosabatlarning bir maqsadni ko'zlab o'zgartirilgani deb qarash mumkin. Bu, birinchi navbatda, transformatsion iqtisodiyotlarda tuzilgan EIHLarga xarakterlidir.

Har qanday EIHga xos bo'lgan umumiy xossalardan biri - uning kengaya olish hamda u bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa terriatoriya, tarmoq, xo'jalik sohaslariga tarqalish qobiliyatidir. Bu qobiliyat Shundan kelib chiqadiki, EIH qandaydir bir alohidalikka ega bo'lishdan qat'iy nazar, milliy xo'jalik organizmining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Hudud rivojlanishi milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sir etmay qolmaydi. Shu bilan birga hududdagi salbiy jarayonlar ham nafaqat hududning o'ziga, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga negativ oqibatlarni keltirib chiqarishi ham mumkin.

Jahon tajribasida EIHLarning xilma-xil tiplari bo'lib, ularning har biri umumiy xususiyatlardan tashqari o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir. Bu o'ziga xoslik har bir aniq holatda ko'plab omillar va ularning mavqei, ahamiyati, o'zaro bog'liqligi bilan aniqlanadi. O'zining rivoji davomida EIH "tashqi"

ta'sirlarga uchraydi, ichki ziddiyatlar paydo bo'ladi, u yashayotgan muhit (siyosiy, iqtisodiy, ekologik tabiiy va b.q) o'zgaradi. EIHning boshqa tashkiliy strukturalardan ustun va ustuvor bo'lgan, uning yashovchanligini va tizim sifatida rivojini ta'minlab bera oladigan xususiyati – uning o'ta dinamikligidir.

EIH konsepsiyasining paydo bo'lishi tarixan va mantiqan klassik iqtisodiy nazariyalarga, ulardagi jamiyat iqtisodiy hayoti normal kechishi uchun erkinlikning zarurligi g'oyasiga tayanadi.



### 1.1 – chima. Erkin iqtisodiy hudud shakllarining umumiy chizmasi

**Manba:** “Turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish”. Darslik. 21 - bet

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, ijtimoiy iqtisodiy muhitiga, konkret geografik va boshqa o'ziga xos tomonlariga qarab EIHlarni yaratishdan maqsadlar ham o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar uchun EIHlar yaratishdan bosh maqsad yangi ish joylarini yaratish bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yuqori texnologiyalarni jalb qilish, eksport potensialni o'stirish, milliy ishchi kuchi malakasi darajasini ko'tarish muhimroqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda EIHlar yaratishdan asosiy maqsad - ayrim qoloq rayonlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va Shu yo'l bilan ishsizlar

sonini kamaytirishdan iborat. EIH taraqqiy qilgan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarda asosan regional siyosat qurolidir. Bu AQSH kabi yirik mamlakatda yaqqol ko‘rinadi. Rivojlangan mamlakatlarda EIHlar yaratishda yana bir muhim maqsad- yuqori texnologiyali va ilm ko‘p talab qiladigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish hamda kadrlar va intellektual potensialdan foydalanish asosida ilmiy-ishlab chiqarishning territorial tuzilmalarini rivojlantirish bazasida innovatsiyani rag‘batlantirishdan iboratdir. Buning uchun «texnopark», «texnopolis» shaklidagi EIH qo‘llaniladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xorijdan kapital, ilg‘or texnologiyani jalb qilish, zamonaviy menejment, marketing, biznes bo‘yicha tajribani qo‘lga kiritish, ish kuchini sifatini yaxshilash, valyuta ishlash kabi maqsadlar ustivorroq bo‘ladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda hududlar yaratishdan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga yana quyidagilarni kiritish mumkin: eksport ishlab chiqarish va importni o‘rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, valyuta tuShumlarini ko‘paytirish, ichki bozorni oziq-ovqat va sanoat tovarlari hamda sotsial-iqtisodiy xizmatlar bilan boyitish, qishloq xo‘jaligi infrastrukturasi rivojlantirish, turizm, dam olish bazalarini rivojlantirish, ilm ko‘p talab qiluvchi yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rag‘batlantirish kabilardan iborat.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda EIH o‘ziga xos belgilarga ega:

- Hudud chegaralari kengayish tendensiyasiga ega, savdo-ishlab chiqarish faoliyati esa o‘sib borish tendensiyasiga ega;
- Xorijiy tadbirkorlar uchun EIHda alohida boshqarish tartibi, iqtisodiyotni doimiy ravishda liberallaShuvi xos;
- EIH faoliyatida katta miqdorda sanoat-savdo diversifikatsiyasi, kompleks rivojlanish tendensiyasi xos;
- Yangi va yuqori texnologiyalar ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan ilm ko‘p talab qiluvchi ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e‘tiborning mavjudligi;

- Jahon tajribasi Shuni ko'rsatadiki, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda EIH ma'lum muddatga (20-30 yil) mo'ljallangan iqtisodiy o'sishning asosiy konsepsiyasi bo'lib bormoqda. Bu mamlakatlarda odatda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish usuli sifatida eksport mo'ljallangan sanoat ishlab chiqarishi hududlarini rivojlantirish tendensiyasi namoyon bo'ladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun o'ziga xos maqsadlar ham mavjud, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini maksimal darajada ta'minlash;
- Tashqi bozorda milliy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish;
- Mamlakatda xorijiy kompaniyalar faoliyatini aktivlashtirish;
- Iloji boricha ko'proq mamlakatlar bilan iqtisodiy va boshqa turdagi aloqalarni rivojlantirish.

Ichki, ya'ni o'sha hudud uchun maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Xorijiy kapitalni jalb qilish;
- Milliy va xorijiy ilm, ilg'or texnologiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni tadbiq etish;
- Ichki bozorni yuqori sifatli tovarlar bilan boyitish;
- Bozor munosabatlarning tezroq kirishiga va qaror topishiga erishish;
- Tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, ularni qayta ishlash va eksport qilish;
- Regionning ichki investitsiyaviy imkoniyatlarini mobilizatsiya qilish;
- Hozirgi zamon iqtisodiy bilimlarni, boshqarish tajribasini egallash;
- Tadbirkorlikni rivojlantirish;
- Valyuta tuShumini oshirish;
- Yangi ish joylarini yaratish va bandsizlik muammolarini hal qilish;
- Tadbirkorlik faoliyatini aktivlashtirish yo'li bilan ilg'or texnologiyalar va hozirgi zamon yutuqlarini ishlab chiqarishga tadbiq etish;
- Yuqori unumdorli eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni yaratish, mahsulotning yangi turini ishlab chiqarish va boshqarish tajribasini

o'zlashtirish, xorijiy mamlakatlar bilan ilmiy-texnik va savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

- Ushbu maydonning eksport imkoniyatlarini oshirish, importni o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'li bilan regionning mavjud tabiiy resurslarni kompleks, oqilona o'zlashtirish;
- Zamonaviy ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani yaratish;
- Boshqarish va xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini qo'llash;
- Ijtimoiy-ekologik muammolarni hal qilish.

EIH yaratishdan maqsadlar ichida turli xil oraliq maqsadlar bo'ladi, ammo asosiy maqsad mamlakatning kichik bir territoriyasida kapital (xorijiy va ichki)ni jalb qilish uchun qulay sharoitni yaratishdan iboratdir. EIHni yaratishdan ko'zlangan maqsad u yoki bu mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy kabi turli xil shart - sharoitlar va omillarga ham bog'liq bo'ladi. O'ziga xos maqsadlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- EIH milliy iqtisodiyotni jahon bozoriga integratsiyalaShuvini kuchaytirish;
- xalqaro iqtisodiy aloqalarni rag'batlantirish;
- ayrim region yoki tarmoqlarning jadal rivojlanishi uchun imtiyozli sharoit yaratish;
- xorijdan milliy texnologiyalarga nisbatan ilg'orini jalb qilish;
- xorijiy kapitalni jalb qilish yo'li bilan iqtisodiyotni faollashtirish;
- eksport mahsulotlar ishlab chiqarishda mavjud xom ashyo resurslarini qo'llashni yo'lga qo'yish...

EIH yaratish uchun qo'yiladigan maqsad mamlakatning taraqqiyot darajasiga, uning joylashishiga, region, mamlakatning birinchi darajada hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

EIH tuzishdan maqsadlarni quyidagi yetti guruhga ham ajratish mumkin:

Birinchi, yangi korxonalar qurish, harakatdagilarni tubdan rekonstruksiya qilish uchun keng miqyosda va intensiv tarzda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish;

Ikkinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish orqali iqtisodiyotni modernizatsiyalash, uning texnologik darajasini oshirish.

Uchinchidan, aholi bandligini oshirish, yangi, noyob mutaxassisliklarni milliy kadrlar tomonidan egallanishi. Shuni ta'kidlash kerakki, EIH yaratishda mehnat sharoitini va ekologik holatni yaxshilash, og'ir jismoniy mehnatni kamaytirish, ishlab chiqarish madaniyatini o'stirish maqsadlari ham qo'yiladi.

To'rtinchidan, eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish orqali valyuta tuShumlarini o'stirish va importni o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlar kengayishi bilan valyuta xarajatlarini kamaytirish hisobidan mamlakatning to'lov balansini yaxshilash.

Beshinchidan, EIH yaratish yo'li bilan hududdagi korxonalar bilan mamlakatning boshqa regionlari hamda tarmoqlaridagi korxonalar o'rtasida raqobatni kuchaytirish. Buning oqibatida milliy mahsulotning raqobatbardoshligi oshadi, umuman iqtisodiyot samaradorligini oshiradi.

Oltinchidan, hozirgi zamon biznes talablariga javob beradigan infrastrukturani hech bo'lmaganda mamlakatning kichik bir territoriyasida yaratish. Busiz jahon bozoriga mo'ljallangan, uning talablariga javob beradigan biznesni yaratib bo'lmaydi. EIH bilan region jahon xo'jalik aloqalari tizimiga tezroq va samaraliroq kirish imkoniga ega bo'ladi. Ushbu territoriya kommunikatsiyaviy, biznes, ijtimoiy infrastrukturani rivojlanishiga juda kuchli turtki bo'la oladi.

Yettinchidan, xo'jalik faoliyati yuritishning yangi, sinalmagan unsurlari, usullari, modellarini tekshirib ko'rish, sinovdan o'tkazish.

## **1.2 O'zbekistondagi erkin iqtisodiy hududlar, ularni yaratish muammolarini o'rganishning nazariy – metodologik asoslari**

Erkin iqtisodiy hudud termini tahlil qiladigan bo'lsak uni ikki pag'ona erkinlik hamda iqtisodiy hudud tuShunchalari sifatida alohida o'rganish lozim. Bunday hududlar tashqi iqtisodiy aloqalarni yaxshilash bilan bir qatorda

investitsiyalar tushumi hamda budjet mablag`larining ko`payishiga olib keladi. Respublikamizda mustaqillik yillaridan so`ng ya`ni 1992 – yilda erkin iqtisodiy hududlar barpo etish masalalari ko`rib chiqila boshlandi. Bunda xorij tajribasini o`rganish muhim masalalardan biri bo`lib hisoblanadi. EIH — jahon amaliyotida 50- yillar boshi va 60-yillar oxirida paydo bo`lgan xo`jalik faoliyatini tashkil etishning nisbatan yangi shakli. Ular, ayniqsa, Xitoy, Bolgariya, Italiya, Vengriya, Polshada faol yaratilmoqda va amal qilmoqda. EIH larni barpo qilishda quyidagi masalalarni hal qilish ko`zda tutadi:

- investitsiyalar, alohida hudud (mintaqa)lar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar bilan ta`minlash;
- resurslarni tejoychi kam chiqimli yoki chiqimsiz yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish;
- xalqaro integratsiya va hamkorlikni yo`lga qo`yish.


EIHlar tashkil qilishning asosiy maqsadi muayyan mintaqa rivojlanishini rag`batlantirish yoki iqtisodiyotning alohida sohalarini tez o`sishini ta`minlash ekanligini ko`rishimiz mumkin. Mustaqillik yillardan so`ng mazkur o`rganishlar natijasida hududlar barpo qilish masalalalari ko`rib chiqilib, hududlar maxsuslashtirila boshlandi. Shundan so`ng EIH barpo etish ishlari vaqtinchalik to`xtatib qo`yildi.

Hozirgi kunda xalqaro xo`jalik faoliyatida erkin iqtisodiy zonalarning 30 dan ortiq turi mavjud. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar bir qator huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi. **1996-yil 25-aprelda** qabul qilingan **“ERKIN IQTISODIY ZONALAR TO`G`RISIDA”**gi O`zbekiston Respublikasi qonuni, **1998-yil 30 aprelda** qabul qilingan **“Chet el investitsiyalari”, “Chet ellik investorlar huquqlarining kafolotlari va ularni himoya qilish choralari to`g`risida ”**gi va boshqa bir qator hujjatlar bilan tartibga solinadi. Hududlarni o`rgangan holda jahon tajribasiga tayanib, 2008 – yildan boshlab EIHlar barpo etish ishlari qayta boshlandi.

O`zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar tashkil qilingan bo`lib, ular mamalakat iqtisodiy faoliyati hamda rivoji uchun xizmat qilmoqda. Bunday iqtisodiy hududlarga misol qilib 2008 yilda tashkil qilingan quyidagi hududlarni keltirishimiz mumkin:

**- “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasi**

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan 2008-yilda tashkil etilgan mazkur erkin iqtisodiy zonada bugungi kunda Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Hindiston, Italiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Buyuk Britaniya kabi davlatlar bilan hamkorlikda avtomobil sanoati uchun zarur ehtiyot qismlar, energetika tizimida foydalaniladigan kabel, raqamli telemoslamalar, maishiy elektron texnikalar va boshqa xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.



**1.2 – chizma. «Navoiy» erkin iqtisodiy-sanoat zonasini hamkorlik aloqalari**

**Manba:** <http://navoiarxiv.uz/navoiy/59-erkin-industrial-iqtisodiy-zona.html>

2015-yilda mazkur iqtisodiy zonadagi korxonalar tomonidan 184 milliard soʻmdan ortiq mahsulot ishlab chiqarilib, 5 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

**- “Angren” maxsus industrial zonasi**

Birinchi prezident Islom Karimov 2012 – yilning 13 aprel kuni “Angren” maxsus industrial zonasini barpo etish toʻgʻrisida”gi Farmoni imzoladi.

Maydoni – 15,3 ming kv.km

Aholi soni – 2628,7 ming kishi

Tuman va shaharlar soni – 18 ta

Yirik korxonalar – 87 ta

Kichik korxonalar – 3000dan ortiq

Quyidagi faoliyatlar bilan Shug`ullanadi:


- Jahon bozorida raqobatbardosh va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;
- To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish;
- Mineral xom-ashyo resurslarini yanada chuqurroq qayta ishlash bo‘yicha yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish;
- Maxsus industrial zona va respublika korxonalari o‘rtasida mustahkam kooperatsion aloqalar o‘rnatish hamda mahalliy xom-ashyolar negizida yuksak texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish.

Industrial zonada amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar doirasida bugungi kunda Angren va Ohangaron shaharlarida 42,7 kilometrdan ortiq avtomobil yo‘li barpo etilishi va kapital ta‘mirlanishi, Shuningdek, 21,4 kilometr suv, 4,2 kilometr kanalizatsiya tarmoqlari qurilishi rejalashtirilmoqda. Ayni kunda bu boradagi ishlar qizg‘in davom etmoqda.

- **“Jizzax” maxsus industrial zonasi**

2013 – yil 18 – mart sanasida “Jizzax” maxsus industrial zonasi tashkil etish to‘g‘risidagi farmon qabul qilindi. Mazkur zona tashkil qilinganidan buyon o‘tgan vaqtda hududda umumiy qiymati 44,1 million dollar bo‘lgan 13 korxonalar foydalanishga topshirildi. Joriy yilning o‘tgan davrida ular tomonidan 133 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 750 ming dollarlik mahsulot eksport qilindi. 770 dan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi. Faoliyati tashkil qilingan bunday hududlar iqtisodiy o‘shish, ishchi o‘rinlarining ortishiga olib kelmoqda. Buning samarasi esa sonlarda o‘z aksini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida ta’kidlaganidek, 2016 yilda Respublikamiz iqtisodiyotiga 16,6 milliard AQSH dollari miqdorida yoki 1915 yilga nisbatan 9,6 foiz ko‘p investitsiyalar yo‘naltirildi.



### 1.3 chizma. Respublikamiz iqtisodiyotiga yo‘naltirilgan investitsiyalar miqdori

**Manba:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi ma‘lumotlardan muallif tomonidan tayyorlandi.

O‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foiz o‘sdi va 3,7 milliard dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo‘lgan 164 ta yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya va diversifikatsiyalash bo‘yicha amalga oshirilayotgan dasturiy chora-tadbirlar qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish hajmlarini 6,6 %, jumladan, meva- sabzavot-11,2 %, kartoshka -9,7 %, sabzavot mahsulotlari etishtirish 10,4 % o‘shishini ta‘minladi. Bu sonlarda faoliyati tashkil qilingan erkin iqtisodiy hududlarning ham o‘z o‘rni bor.

EIHLarni tashkil qilishda asosiy e‘tibor ishlab chiqarish salohiyati va bo‘sh ish o‘rinlarini yaratishga qaratilmoqda. 2017 yil 10 aprelda O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 196-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu qaror O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 yanvardagi «Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» 2016 yil 26 oktabrdagi PF-4853-sonli hamda «Urgut», «G`ijduvon», «Qo`qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to`g`risida»gi PF-4931-sonli farmonlarini ijro etish yuzasidan qabul qilindi.

Mazkur qarorga muvofiq, Samarqand, Buxoro, Farg`ona va Xorazm viloyatlari hokimliklari, O`zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo`mitasi, Davlat arxitektura va qurilish qo`mitasi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining «Urgut», «G`ijduvon», «Qo`qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tarkibiga kiruvchi hududlar chegarasini belgilash to`g`risidagi taklifi ma`qullandi. Bunday hududlarning tashkil etilishi asnosida mahalliy aholini ish bilan ta`minlash, davlat byudjet tuShumini oshirish hamda xorij sarmoyalarini jalb qilish maqsadlari yotadi. Qabul qilingan farmon yuzasidan viloyatlarda tegishli mutasaddi organlari tomonidan harakatlar boshlangan va bugungi kunda izchil davom etmoqda.

- «**Qo`qon**» erkin iqtisodiy zonasining umumiy maydoni 700 gektar, infratuzilmalar maydoni 100 gektarni tashkil etib, elektr, tabiiy gaz, ichimlik suvi tarmoqlari, kommunikatsiya vositalari bilan to`la ta`minlanadi.

Shu kungacha «Qo`qon» erkin iqtisodiy zonasida tadbirkor va ishbilarmonlar tomonidan 500 tadan ortiq loyihalar taqdim etilgan bo`lib, dastlabki bosqichda ular orasidan 150 ga yaqini tanlab olingan. Loyihalarning umumiy qiymati 628, 2 milliard so`m bo`lib, 95,4 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar kiritilishi ko`zda tutilyapti. Biznes-rejalar esa viloyatda faoliyat olib borayotgan barcha banklar hamkorligida tayyorlanmoqda. Loyihalar amalga oshirilishi natijasida 9 ming 400 ta yangi ish o`rinlari yaratilib, aholining turmush darajasi yanada ortadi. Ayni paytda 380 gektar yer

maydonida sanoat korxonalarini joylashtirish uchun muhandislik-kommunikatsiya tizimlarini tortish – gaz, elektr, suv, kanalizatsiya, temir yo‘l tarmog‘ini qurish bo‘yicha dastlabki loyihalar tayyorlandi. Ushbu zonaga sanoat mahsulotlari, ayniqsa elektrotexnika va farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, logistika markazlarini tashkil etish bo‘yicha mahalliy va chet el investorlari ishtirokida investitsiya loyihalari ishlab chiqilmoqda.

- Rejaga ko‘ra, 2017 yilda Samarqandning **“Urgut”** erkin iqtisodiy hududida 78ta sanoat loyihasi ishga tushirilib, ish o‘rni 3400taga yetkazilishi kerak.

Quyidagilar **“Urgut”** EIH, **“G‘ijduvon”** EIH, **“Qo‘qon”** EIH va **“Hazorasp”** EIHning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilandi:

-tashqi bozorlarda talab katta bo‘lgan va importning o‘rnini bosuvchi, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy va mahalliy investorlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarini jalb etish;

-Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining ishlab chiqarish va resurs salohiyatlaridan kompleks hamda samarali foydalanishni ta‘minlash;

-meva-sabzavot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to‘qimachilik, gilam to‘qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish va boshqa yo‘nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

-mahalliy xomashyo va materiallar negizida mustahkam kooperatsiya aloqalarini o‘rnatish hamda erkin iqtisodiy zonalar korxonalarini o‘rtasida va umuman respublikada sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish asosida yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

-ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni standartlashtirish, sertifikatlashtirish va markirovka qilish bo‘yicha xalqaro standartlarga muvofiq ilmiy-ishlab

chiqarish markazlari tashkil etish va ularning qarorlari xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish.

Bugungi kunda, O'zbekistonda 3ta iqtisodiy hudud faoliyat yuritadi, yana 4tasining faoliyati rejalashtirilgan. U yerda sarmoyadorlar uchun biznes yuritish uchun imtiyozlar va alohida imkoniyatlar taqdim etilgan va ular davlat budjetida o'zining ulushiga ega.

### **1.3. Turizm sohasida erkin iqtisodiy hudud tasnifi**

Hozirgi paytda dunyoda 7000 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar bo'lib, ular iqtisodiyotning turli sohalariga ixtisoslashgan. Rivojlangan mamlakatlar ham, rivojlanayotgan mamlakatlar ham hududlarida, albatta turli maqsadlarni ko'zlab sayyohlikka ixtisoslashgan EIHLar vujudga keltirilmoqda. Bunda hal etiladigan aniq vazifalar orasidan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin: maxsus imtiyozlar, barqaror qonuniy baza va tashkiliy muolajalarni soddalashtirish tufayli xorijiy kapitalni va ilg'or texnologiyalarni jalb etish, tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish uchun mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanish, mamlakat va mintaqa byudjetiga valyuta tushumining o'sishi, yangi ish joylarini yaratish, tashkil qilish, boshqarish va moliya sohasida jahon tajribasini o'rganish va amaliyotga joriy etish hisobidan ish kuchi malakasini oshirish. Umuman olganda, turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy hududlar ilmiy jihatdan kam o'rganilgan sohalardan biridir.

Turizmga ixtisoslashgan EIHLar kamchiligining yana bir sababi - EIHLar tarixan, avvalambor, erkin portlar, bojsiz hududlar kabi shakllarda savdo sohasida paydo bo'ldi. So'ngra esa sanoat sohasida jadal sur'atlar bilan o'sdi. Bunday rivojlanish o'sha davr iqtisodiyotining talablaridan kelib chiqar edi. Hozir esa jahon iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohalarini (bank ishi, moliya, turizm, ilmiy-texnik va b.q.) qamrab olmoqda. Shuning uchun sanoat mahsulotlarini eksportga ixtisoslashgan EIHLar sekin-asta o'sib borgan holatda, xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan EIHLar tomon jadal sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. Bundan tashqari, mavjud EIHLar o'z faoliyatini xizmat ko'rsatish

sohalarini o‘stirish hisobidan kengaytirib boradi. Turizm sohasida ixtisoslashgan EIHlar kamchiligining yana bir sababi - jahon miqyosida turistik xizmatlarga bo‘lgan talab, asosan qondirilmadan kelinmoqda. Ammo bu talab qondirila borishi bilan, turizmda jadal o‘sayotgan yirik korxonalar o‘rtasida raqobat ashaddiylasha borgan sari, turizmga ixtisoslashgan EIHLarga talab o‘sib boraveradi. Bu hududlar raqobat kurashida ustunlikka ega bo‘lishlari uchun turli xil imtiyozlar berib, xorijiy hamkorlarni va mahalliy investorlarni turizmni rivojlantirishga jalb qiladilar.

Sayyohlik erkin iqtisodiy hududlar yaratish bir qator muammolarni: moliya-kredit, ilmiy texnika, ijtimoiy muammolarini hal etish bilan bog‘liqdir. Ba’zi mamlakatlarning tajribasi Shuni ko‘rsatadiki, yaxlit bir konsepsiya darajasida ishlab chiqilmagan erkin sayyohlik hududlar (keying o‘rinlarda ESH deb yuritiladi) g‘oyasi sayyohlik erkin iqtisodiy hududlar ishining umumiy samaradorligiga salbiy ta’sir etadi va pirovardida noxush oqibatlariga olib keladi. Iqtisodiyotni zamonaviylashtirish va mamlakatga xorijiy investitsiyalarni jalb etish vositasi bo‘lish o‘rniga hudud imtiyozlari ayrim davlat guruhlarini yashirin subsidiyalash vositasiga aylanadi, jamg‘arilgan kapitallarning chet ellarga chiqib ketishiga sabab bo‘ladi.

Turizmga ixtisoslashgan EIHLarning uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturini ishlab chiqishda xalqaro turizm rivojining asosiy yo‘nalishlari, muammolari va perspektivalarini chuqur o‘rganish talab qilinadi. Bundan tashqari, EIH yaratishda xorijiy tajribani o‘rganish ham zarur, ammo faqat unga tayanib hududni tashkil etib bo‘lmaydi. Mahalliy ehtiyojlar va mahalliy shart-sharoitlarni chuqur o‘rganib hisobga olishga to‘g‘ri keladi. Aks holda, aytgan natijaga erishib bo‘lmaydi.

Turizmga ixtisoslashgan EIHNi rejalashtirishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- rekreatsion imkoniyatlarning mavjudligi;
- arzigulik turistik ob’ektlarning mavjudligi;
- ish kuchining sifati, tarkibi;

- infrastruktura rivoji darajasi, tarkibi;
- transport, aloqaning rivojlanish darajasi.

Turizmga ixtisoslashgan EIHLarni yaratishda kadrlarni borligi ham muhim omil hisoblanadi. Yetarli kadrlar bo'lsagina bunday hududlarni yaratish mumkin. Masalan, Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi bunday hududlarida mehnat qiymati va unumdorligi, xodimlar malakasining turli - tumanligi ko'p holda hududga jalb etilayotgan ishlab chiqarish turini belgilaydi. Hududda mavjud ishlab chiqarish bazasi, yoki uning yaqinida rivojlangan ishlab chiqarishning mavjudligi potensial xorijiy investorlar uchun ham, qabul qiluvchi mamlakat uchun ham foydalidir.

Sanoat - savdo va transport-savdo sohasiga ixtisoslashgan EIHLardan farqli ravishda, turizmga ixtisoslashgan EIHLar quyidagi maxsus shart-sharoitlarni talab qiladi:

- maxsus turistik moddiy - texnika bazasining mavjudligi;
- maxsus turistik infrastrukturaning mavjudligi;
- turistik xizmatlarning assortimenti yetarli darajada rang-barangligi;
- malakali xodimlarning mavjudligi;
- turistik xizmatlarga talabning yetarli darajada bo'lishi;
- transport shaxobchalarining yetarli darajada rivojlanganligi va boshqalar.

TEIHLarida alohida soliq tarkibi o'rnatilishi, bunda sayyohlik korxonalarini ro'yxatdan o'tgan paytlaridan boshlab, ma'lum muddat davomida bir qancha soliqlardan ozod qilinishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, chet ellik sayyohlar tomonidan tovarlar olib kirish va olib chiqish, ESHlardagi korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qilish hamda chet elda tayyorlangan tovarlarni import qilishga alohida bojxona tartibi joriy etiladi. Kvotalash va litsenziyalash masalalari maqbul tarzda hal qilinadi.

Biroq hatto eng qudratli imtiyozlar tizimi ham transport kommunikatsiyasi ning yomonligi, elektr energiyasi bilan yetarli ta'minlanmaslik yoki siyosiy beqarorlik kabi kamchiliklarning o'rnini bosa olmaydi. Turistik EIHLni

yaratishda turizmning moddiy-texnika bazasi va infraqructurasini rivojlantirish uchun juda katta hajmdagi va o'sib borayotgan mablag'larni va valyuta tushumlarini talab qiladi.

TEIHLarning yana bir muhim omili – alohida valyuta tartibidan iborat bo'lib, bu tartib milliy va chet el valyutalarining erkin muomalada bo'lishini nazarda tutadi.

TEIHLar xizmat ko'rsatish bo'yicha rivojlangan tijorat infraqructurasi, shu jumladan bank, konsalting, yuridik xizmat va shular kabi boshqa xizmatlarning mavjudligi, bozorga kirish, asosiy bozorlarga imtiyozli kirish katta ustunlikdir.

EIHda eng muhim omillardan biri yaxshi ishlaydigan valyuta ayirboshlash mexanizmining mavjudligidir. Bu esa hududda rivojlangan va yaxshi jihozlangan valyuta birjasi, valyuta ayirboshlash punktlarining shaxobchalari bo'lgan va turli-tuman valyuta operatsiyalari o'tkaziladigan valyuta bozorini vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, u sayyohlik hudud rezidentlari va norezidentlari uchun valyuta operatsiyalaridagi cheklashlarni olib tashlashni, milliy valyutani sayyohlik erkin iqtisodiy hududlarda erkin almashtirishni bildiradi. Pul muomalasining bu varianti sayyohlik EIHLarni mamlakat iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuviga imkon beradi, xorijiy investorlarga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. TEIHLar valyuta mexanizmining ishlashini mamlakat markaziy banki bo'limi ta'minlaydi.

Turistik EIHNi yaratishdan ko'zlangan maqsad - xalqaro turizmning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish va mamlakatga kelayotgan turistlar oqimini barqarorlashtirish maqsadida turistik ob'ektlarni qurish va ekspluatatsiya qilishda xorijiy hamkorlarni jalb qilishdan iborat. Turistik EIHda xorijiy firmalarga o'zlari yaratgan moddiy-texnika bazasini butun faoliyatlari mobaynida daromad keltira olishlari kafolatlanadi. Xorijiy turistik firmalarning turistik EIHLarga qiziqishi hududda jahon standartlari talablariga javob bera oladigan ob'ektlarni qurish imkoniyati borligi bilan bog'liqdir.

Ayrim mutaxassislar turistik EIHNi sanoatga ixtisoslashgan EIHga yaqin joyda (yoki uning ichida) yaratishni taklif etadilar. Agar bu EIH avtoritetga ega

bo'lsa, uni yonida turistik EIHni yaratish ishi ancha osonlashadi. Bundan tashqari, bu EIHda yaratilgan, jahon standartlariga javob bera oladigan tovarlarni turistik EIHda foydalana olish imkoniyati yaratilajak hudud imijiga ijobiy ta'sir qiladi.

Turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy hududlar planetada juda ham kam, ammo ularning har biri o'ziga xosdir.

O'zbekiston uchun erkin iqtisodiy hududlar yaratishda eng perspektivalisi - tranzit (transport), savdo sohasiga ixtisoslashgan EIHLar bilan bir qatorda xalqaro turizmga ixtisoslashgan EIHLar hisoblanadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm bo'yicha bir necha stadionlar va sport assotsiatsiyalariga tayanuvchi erkin hudud yaratish (savdo bo'yicha erkin savdoni ham tashkil etgan holda) bo'yicha ish olib borilmoqda. Toshkentda esa «quruqlikdagi port» maxsus hudud tashkil etish boshlandi. Bunga Yaponiyaning «Sumito korporeyshn» korporatsiyasi bosh bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublika sayyohlik tizimini jahonning sayyohlik tizimiga qo'shib yuborishdan maqsad, sayyohlikni respublika iqtisodiyotining ustuvor tarmog'iga aylantirishdan iborat bo'lmog'i kerak. 1998 yilda Xalqaro turizm tashkiloti (keyingi o'rinlarda XTT deb yuritiladi) "Buyuk ipak yo'lini tiklash" bo'yicha xalqaro dastur qabul qilgan edi. Bu dastur ham respublikamiz uchun ko'p narsa beradi. Shuni aytish kerakki, Buyuk Ipak yo'lida sayyohlikni amalga oshirish, O'zbekiston va Markaziy Osiyo xalqlari madaniy merosini kompleks tiklash va saqlab qolish ham XTTning maqsadiga aylanib bormoqda.

Buyuk ipak yo'lidagi shaharlar Samarqand, Buxoro, Xiva va Qo'qon, Toshkentda ESH tashkil etishga katta umid bilan qaralmoqda. Bu ESHlarning asosiy maqsadi sayyohlik strategiyasini rivojlashtirish uchun chet eldan mamlakatimizga investitsiyalarini jalb qilib, uni asta - sekin jahon sayyohlik tizimiga qo'shib yuborishdir. ESHlar orqali sayyoh sifatida O'zbekistonga kirib keladigan chet ellik fuqarolar erkin mintaqa aeroportlarida pasportlarini ko'rsatib, viza olishlari mumkin bo'ladi. O'z navbatida Vazirlar Mahkamasi sayyohlikni rag'batlantirish maqsadida ESHga kirib kelayotgan chet ellik

sayyohlar uchun viza tariflarini qayta ko'rib chiqishi kerak. Mazkur sohaning rivoji uchun O'zbekiston Respublikasida bir qator faoliyatlar olib borilmoqda. Xulosa qilib aytganda, EIHLar yaratish borasida respublikamizda takliflar anchagina, ammo, EIHLar yaratish borasida bu sanab o'tilgan takliflar joy, soha va tarmoq tanlashda puxta o'ylanilmagan, deb hisoblaymiz. Ko'pgina mamlakatlar EIHLarni oddiy shakllaridan kompleks turiga qarab rivojlantirib borgan. Bu ishni O'zbekistonda ham sodda shakldagi hududlardan boshlash kerak, degan xulosa olib keladi. Keyin esa amaliyotni o'zi yo'l ko'rsatib beradi.

Xullas, O'zbekistonda EIHLarni modul tipi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqdir, ya'ni yaxshi jihozlangan yadroni yaratib, so'ngra Shu yadro atrofida o'zlashtirishni olib borish kerak. EIHLni aniq bir ishdan, kichik bir faoliyatdan boshlash kerak, obro'li, arziydigan hamkorlar bilan ish boshlash kerak.

### **I bob bo'yicha xulosa**

Xulosa qilib Shuni aytish mumkinki, turizm sohasi bugungi kunda butun dunyoda rivojlanib bormoqda. Unga bo'lgan e'tibor kuchayib moliyaviy jihatdan ko'mak ortib bormoqda. Erkin iqtisodiy hududlarga O'zbekiston sharoitida yondaShuv va imkoniyatlar keng tarzda ochib berilgan. Ularning iqtisodiyotga ta'siri, bo'sh ish o'rinlarni tashkil qilish hamda sanoatdagi ulushi ortib bormoqda.

Mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasiga, ijtimoiy iqtisodiy muhitiga, konkret geografik va boshqa o'ziga xos tomonlariga qarab EIHLarni yaratishdan maqsadlar ham o'ziga xos xususiyatiga ega bo'ladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar uchun EIHLar yaratishdan bosh maqsad yangi ish joylarini yaratish bo'lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yuqori texnologiyalarni jalb qilish, eksport potensialni o'stirish, milliy ishchi kuchi malakasi darajasini ko'tarish muhimroqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda EIHLar yaratishdan asosiy maqsad - ayrim qoloq rayonlarning iqtisodiy jihatdan rivojlantirish va Shu yo'l bilan ishsizlar sonini kamaytirishdan iborat.

Bundan tashqari, bugungi kundagi turizmga bo`lgan ehtiyoj ortib borib, infratuzilma rivojlanib, shaharlar ko`rkamlashib, zamonaviy bilimga ega kadrlar yetishib chiqmoqda, kishilarning madaniy ehtiyojlari qonmoqda. Bu imkoniyatlar turizm bozorida raqobatning kuchayishi va raqobatbardosh turmahsulotlarning yaratilishiga sabab bo`lib, madaniyatimiz, tariximiz, urf-odatlarimizni dunyoga tanitmoqda. Turizm sohasida ham bir qator erkin iqtisodiy hududlar faoliyati tashkil qilingan bo`lib bunday hududlarda sayyohlar uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgan.

## II BOB. TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUD YARATISH BO`YICHA JAHON TAJRIBASI

### 2.1 Jahon mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan turistik erkin iqtisodiy hududlar

Jahon iqtisodiyotida turizmga ixtisoslashgan EIHlar hozircha kam (ular Italiya, Kipr, Gibraltal, Ispaniya, Iordaniya, Tunis, Izroil, Urugvay, Janubiy Koreya, BAA va boshqa ayrim mamlakatlarda bor). Ammo, keyingi yillarda ko'pgina davlatlarda Shunday hududlarni tashkil etish e'lon qilinmoqda. Bunday hududlar hamda ular Shug`ullanadigan faoliyat doirasi bilan tanishib tahlil qildik.

#### 2.1 – jadval

#### Jahonda faoliyati tashkil qilingan TEIHLar

T/r	Davlat	Turistik erkin iqtisodiy hudud
1	Polsha	Koshalin
2	Rossiya	Shushensk-Borovoy
		Lega naki
		Oltoy
		Kavkazkie miniralnie void
		Zelenograd
		Belakursk
		Baykal
		Biryuzoviy Katun
		Sibirskaya Moneta
		Alabuga
		Buryatiya
		Russkiy ostrov (Vladivostok)
		Svetlogorsk
		Qrim
3	Ispaniya	Malaga
4	Tunis	Jarba
		Bizert
5	BAA	Djebal-Ali
		SHarj aeroporti
6	Xitoy	Xaykou (Xaynan markazi)
		Liupai
		Ninxia
		Dolyan
		Chenj`jen
		Chegju


		Kanas
		Binxay
		Lunxua
		Syuni
		Meylan
		Chechju
		Bayxoba
		Shanxay shengsha island turist
		Chunmin
7	Gruziya	Adjariya
		Kobuleti
		Anakliya
		Zugdidi
		Mestia – Zemo Svaneti
		Axtala
8	Turkmaniston	Avaza
9	Tojikiston	Xatlon
		Baljuvon
10	Filippin	Tuadid de Viktoriya
		Punga Lasnon island grin
		Emborsedero de legazpi
		Manila bay rezarjs
		Bagang nayang pilipo
11	Eron	Kish
		Kishim
12	Marokash	Rabot
		Agadir
		Meknes
		Tangier
		Liksus
		Sondiya
		Tagazoit
		Play Blanka
		Mazegan
		Essonra
13	Dominikan	Santa Daminggo
14	Iordaniya	Akaba
15	Kosta Riko	Turu ba ri
		Flamingo
16	Ganduras	Roatan
17	Panama	La Amistaya
		Bastimentos
		Portobelo

		San Blas
		Arko Seko
		Las Perlas
		Darnen
		Faralton
		Metropolitien
18	Janubiy Koreya	Incheon (Turistik klaster)
		Yongjong (Turistik klaster)
		Pusan (Turistik klaster)
19	Izroil	Eylat
20	Hindiston	Rajastan
		Madya pradesh
		Kerala
		Goa
		Uttar pradesh
21	Seyshel orollari	Seyshel
22	Maldiv orollari	Maldiv
23	Irlandiya	SHannon (Turistik klaster)
24	Singapur	
25	Tailand	Pattaya

**Manba:** Internet ma'lumotlariga asoslangan holda muallif tomonidan tayyorlangan

## DUBAI TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDI

1996 yilda tashkil topgan bo`lib, aviatsiya, farmatsevtika, logistika, tovarlarni tashish, zargarlik, IT – texnologiyalar, mobil telefon aksesuarlari va boshqa sohalar juda rivojlangan. Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zona hududida zamonaviy jihozlangan ish markazi, restoranlar, go`zallik salonlari, pochta, bank idoralari, tibbiy klinika, sayohat agentliklari joylashgan. TEIHda quyidagi litsenziyalar turlari mavjud: savdo litsenziya (import, soqchilar, tarqatish, muayyan mahsulot saqlash); xizmatlar ko`rsatish uchun litsenziya.



DAFZ kompaniyaning yaratish asosiy afzalliklari:

- kapitali 100% xorijiy mulk
- barcha turdagi soliqlardan to'liq ozod
- valyuta cheklashlar yo'qligi

Dubay dam olish uchun tashkil qilingan joy sifatida tanilgan bo`lib, BAAda muvaffaqiyatli biznes uchun eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo`lib hisoblanadi.

## LATVIYA



Latviyada erkin iqtisodiy hududi yaratish orqali savdo, sanoat, transportni, Shuningdek, xalqaro yuk oqimini rivojlantirish maqsadida 20yil muddatga 1997 yilda tashkil etilgan.

Latviyada EIH uchun quyidagi soliq imtiyozlari mavjud:

- Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi yirik loyihalar investitsiya kompaniyalari uchun sarmoya 40% soliq imtiyozlari.
- hi-tech firmalar investitsiya (boshqa sohalarda 20% chegirmalar) bo'yicha 30% soliq imtiyozlari.
- To'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliq imtiyozlar Latviya doirasida har bir kompaniya umumiy savdo 20% dan oshmaydi sharti bilan 4 joylarda beriladi.

## 2.2 – jadval

### Latviya EIHLari ozod qilingan soliqlar


SOLIQLAR	OZOD ETILISH FOIZI
Qo`shimcha qiymat solig`i	Ozod
Import va eksport bojxona boji	Ozod
Ko`chmas mulk	100% ozod
Koorparatsiya solig`i	80% chegirma

Manba: <http://www.1001tur.ru/latviya/>

Latviyada erkin iqtisodiy hududlarning maqsadi ishlab chiqarish va infratuzilma, yangi ish o'rinlari yaratish hamda rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etish hisoblanadi.

## TUNIS

Tunis Respublika bo`lib, amaldagi konstitutsiyasi 1959 yil 1 iyunda qabul qilingan. Davlat boshlig'i — prezident va umumiy to'g'ri va yashirish ovoz berish yo'li



bilan 5 yil muddatga saylanadi va yana 2 yil muddatga qayta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni Deputatlar palatasi (bir palatali parlament), ijrochi hokimiyatni prezident bilan hukumat amalga oshiradi.

Tunis agrar-industrial mamalakat bo`lib hisoblanadi. Asosan olivka, sitrus mevalar, uzum, xurmo hamda tamaki mahsulotlari eksport qilinadi. Mamlakatda temir, neft, fosforitlar qazib olinadi hamda neft mahsulotlarini qayta ishlash, kimyoviy texnologiya hamda mashina ishlab chiqarish uchun mo`ljallangan zavodlar mavjud. Asosan tashqi turizm rivojlangan (inostranniy).


Tunisning Yevropa yaqinligi (bor yo`g`i 140 km), arab dunyosida va Afrika qit`asida uning o`ziga xos roli borligini bildiradi hamda investitsiya kiritish va biznesni olib borishda bu mamlakatni o`ta jozibador va qulay hisoblanadi. Chegarasining 1300 kilometri dengiz qirg`og`i bo`lganligi uchun bu mamlakat tarixan dunyoga ochiqqligi bilan xarakterlanadi.

Tunis tashqi iqtisodiy siyosatining o`ziga xos xususiyati mamlakatning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga maksimal qatnashishidir va bu tashqi iqtisodiy aloqalar avvambor, 3 asosiy yo`nalishga mo`ljallangan:

- Mag`rib mamlakatlari bilan integratsiya;
- Arab mamlakatlari bilan an`anaviy aloqalarni rivojlantirish;
- Evropa ittifoqi mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish.

### 2.3 – jadval

#### EIHLar investorlariga quyidagi huquqlar berilgan




Manba: <http://www.1001tur.ru/tunis/> ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Tunisda investitsiyalarni jalb etuvchi muhim tarmoq - turizm hisoblanadi. Turizmni tashkil etish va bu tarmoqdan keladigan daromad bo'yicha Tunis Afrika qit'asida birinchi o'rinni egallaydi. Xorijiy investorlarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilish uchun Tunisda yangi investitsiya kodeksi qabul qilingan bo'lib, bu kodeks bo'yicha investorlar 10 yil mobaynida foyda solig'idan ozod qilinadi. Xorijiy tadbirkorlarni shimoliy Tunis rayonidagi Tabarka shahridagi yangi kurort maskani, mehmonxonalarni xususiylashtirish bo'yicha muolajalar, to'qimachilik sanoati, mashinasozlik va elektron sanoati eng ko'p qiziqtiradi.

Hozirgi paytda Tunisda 1700 xorijiy va qo'shma korxonalar bo'lib, ular mamlakat eksportining to'rtidan birini, mamlakatdagi ish joylarining beshdan birini tashkil qiladi. Har 10 tunislikdan biri qo'shma korxonada faoliyat yuritadi.

Tunis YAIMning yarmini turizm bermoqda, mamlakatga 4 mln. turist keladi.



### 2.1 – chizma: Tunis YaIMida sohalar ulushi

Manba: <http://www.1001tur.ru/tunis/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

1989 yilda «Tunis-erkin iqtisodiy zonalari» to'g'risidagi qonuni qabul qilingan. Bu qonun chizmasi Gretsiya va Iordaniya amal qilayotgan qonunlar chizmasi asosida ishlab chiqilgan. Bu qonun bo'yicha sayyohlikka, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik, chet el investitsiyalarni soliqqa tortish va bojxona to'lovlari sohalarida imtiyozlar berilgan.

Qonun qabul qilingach, ikkita erkin iqtisodiy hudud tashkil etilganligi e'lon qilindi: **Bittasi** mamlakat poytaxtidan unchalik uzoq bo'lmagan xalqaro yirik

port-Bizert shahri; **Ikkinchisi** Jarba oroliga yaqin va mamlakatining janubida joylashgan Zarris shaharlarida tashkil etildi.

Turizmda 44 ming kishi band, bundan tashqari 300 ming kishi turizmga aloqador sohalarda band. Turistik faoliyat uchun investitsiya kiritmoqchi bo‘lgan investorlarga Davlat grantlari quyidagi tartibda beriladi:

- turistik loyihaning 6 % miqdorida Davlat investitsiya granti;
- loyihaga kiritilayotgan tashqi investitsiyaning 1foizi, lekin 50 ming dinordan ko‘p bo‘lmagan miqdorida.

#### 2.4 – jadval


Bu grantlarning berilish tartibi Moliya Vazirligi tomonidan 3 bosqichda amalga oshiriladi

1-bosqich	Loyihaning boshlang‘ich davrida grantning 40%i beriladi.
2 – bosqich	Loyihaga qo‘yilgan investitsiya mablag‘ining 60%i o‘zlashtirilgandan so‘ng, yana 40%i beriladi.
3 – bosqich	Ishlab chiqarish quvvati to‘la o‘zlashtirilgandan so‘ng, qolgan 20 foizi beriladi.

Manba: <http://www.1001tur.ru/tunis/> ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Tunisga investitsiya jalb qiladigan sohalar:

- transport,
- qishloq xo‘jaligi,
- sayyohlikdir.



#### 2.2 – chizma: Tunis aholisining bandlik darajasi

Manba: <http://www.1001tur.ru/tunis/> ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Davlat organlari bo‘lgan Turizm Vazirligi va Turizm bo‘yicha Tunis Milliy Departementi xalqaro maydonda turizmni reklama qilish bo‘yicha muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Nabel, Hammamet shaharlari va Jarba

orolida juda chiroyli va zamonaviy dam olish maskanlari qurilgan bo'lib, hozirda turistlarga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga turizmni mamlakatning ichkarisiga kiritish uchun ham loyihalar ishlab chiqilmoqda.

### **KOBULETI - FREE TOURISM ZONE**

Kobuleti bu shaharcha va dengiz sohilidagi kurort (sog'liq uchun kurort) hisoblanadi. U Gruziya g'arbiy qismi, Adjara regionida joylashgan. Avgustda o'rtacha temperatura +25C. Bu yerda ko'pgina yerlar investorlar uchun berilgan. Asosiy yerlar Qora dengizdan 140 metr uzoqlikda joylashgan.



Qulayliklari shundan iborat ki, 11 gektar maydonga ega bo'lgan, 30ta mehmonxona

qu zrish uchun mo'ljallangan. Kavkazdan 1,5km uzoqlikda joylashgan. Investitsion qulayligi Shundaki, to'l qoplangan elektroenergiya, texnologiya va internetga ega bo'lishi bilan bir qatorda, bo'sh yerlari ko'p hamda 15 yil davomida soliqsiz ishlab foydani bo'lmaslik kabi imtiyozlar yaratilgan.

Quyidagi zamonaviy infrastrukturallarga ega:

- \* Batumi International Airport
- \* Yangi Poti International Airport
- \* Yangi Anaklia – Zugdidi Airport (Mahalliy)
- \* Yangi asosiy shasse Batumi-Kobuleti
- \* Yangi asosiy shasse Tbilisi-Kobuleti-Batumi
- \* Yangi tez temiryo'l Tbilisi-Kobuleti


Eng qulayliklaridan yana biri bu zona tranzit port ham hisoblanadi. Chunki qora dengizdan o'tganligi sababli yuklar uchun asosiy qoplam hisoblanadi va investorlarga **bussines turism** uchun qulaylik yaratadi.

## TURKIYA. MERSIN

Mersin shahrining sharqida umumiy portlar soni 45 ta xalqaro portni tashkil qiladi. Umumiy maydoni 785.000 kvadrat metrni tashkil etadi. Port orqali 100 dan ortiq mamlakatlar bilan savdolarni amalga oshiradi.



Turkiyada 1986-yilda birinchi marta erkin iqtisodiy zona Mersinda ochildi. Chunki Mersin- zonasi asosiy bozorlariga eng yaqin shahar hisoblanadi masalan Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Sharqiy va G'arbiy Yevropa, Rossiya va Markaziy Osiyo investitsiyalar va biznes uchun eng jozibador bo'lgan. 2002 yilda savdo zonalari hajmi 51,8 mlrd. dollarni tashkil etdi.



### 2.3 – chizma: Turkiya YaIMning o`shish darajasi

Manba: <https://www.tripadvisor.ru> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bugungi kunga kelib esa Turkiya investitsiyalarni jalb etish bo'yicha dunyoda 22-o'rinda. Faol va yetuk xususiy sektor, eksport 152\$ milliard, 2004 va 2013 o'rtasidagi o'sish 245 foiz.

## FILIPPIN

Filippin erkin iqtisodiy hududlarini rivojlantirish maqsadida 1995-yil Maxsus qonun qabul qiladi. Avvaliga erkin iqtisodiy hudud Filippin savdo sanoat bo'limi orqali boshqarildi. Hukumat sanoat mulk, eksport ishlash zonalarining operatsiyalari, erkin savdo zonalari, hamda Shunga o'xshash

umumiy siyosat belgilab beradi. 2010-yil 31 mayga kelib Filippinda 200 dan ortiq Erkin Iqtisodiy hududlar yuzaga keldi.

Quyida Filipindagi eng yirik erkin iqtisodiy zonalar nomlari keltirilgan:

- Subic Bay Metropolitan Authority (76.59 hectares)
- Clark Special Economic Zone (29,365 hectares)
- Freeport Area of Bataan (1,742.48 hectares)
- PHIVIDEC Industrial Authority
- Zamboanga City Special Economic Zone Authority
- Cagayan Special Economic Zone
- Aurora Pacific Economic Zone and Freeport Authority (APECO)
- Light Industry & Science Park I, II, & III (272.22 hectares)
- Laguna Technopark (289.95 hectares)
- Laguna International Industrial Park (34.88 hectares)
- Hermosa Ecozone Industrial Park (142.04 hectares)
- Keppel Philippines Marine Special Economic Zone (22.92 hectares)
- Filinvest Technology Park - Calamba (51.07 hectares)
- Carmelray Industrial Park I&II - Calamba (CIP I 60.86 hectares; CIP II 143.03 hectares)



Hukumat Erkin iqtisodiy zona uchun soliq imtiyozlarini joriy etgan, o'zining yalpi daromadini 5 % ni to'lasa bo'ldi, 0 % li soliq ham mavjud bo'lib bunda erkin iqtisodiy hududga asbob uskunalari ehiyot qisimlari import qilinishi zarur deb belgilangan.

### ARUBA TURISTIK ERKIN HUDUDI



FreeZone Aruba

Karib dengizi janubida joylashgan orol-davlat maydoni – 193 km<sup>2</sup> bo'lib 8 ta hududga bo'linadi. Aholisi–109000 kishi.

Iqtisodiy asosiy tarmoqlar- Turizm, bank sohasi, neftni qayta ishlash va saqlash. Aruba offshore hudud bo'lganligi uchun bank tizimi juda ham rivojlangan. Uning Markaziy banki nufuzli xalqaro banklar qatorida turadi.

Arubada o'z biznesini boshlashi uchun deyarli barcha sanoat turlarida faoliyat yuritish uchun qulayliklar bor: Xalqaro savdo, Sanoat va Texnologiya, Global xizmatlar , Rivojlanish rejasi

Xalqaro savdo biznesi - Tovar importi va eksporti, Yuk konsolidatsiyasi va taqsimoti, Chakana savdo (sayyohlarga mo'ljallangan), Buyurtma bilan tovar yetkazib berish, Elektron tijorat, (Showcasing) Tovarlarni ko'rsatish – Aruba top mehmonxona, restoran, golf maydonlari, kechki hayotini reklama sifatida ko'rsatish.

### Sanoat va texnologiya biznesi

#### *Faoliyat turlari:*

- Ishlab chiqarish va o'rash
- Ta'mirlash va qurilish
- Tovarlarni yangilash
- Showcasing


#### Global xizmatlar:

#### *Faoliyat turlari:*

- Raqamli media va telekommunikatsiyalar
- Professional, ilmiy, texnik yoki tadqiqot xizmatlari
- Maslahat, boshqaruv va ta'minot xizmatlari
- Tijorat va marketing
- Elektron savdo
- Showcasing
- Tibbiy turizm
- Ta'lim xizmatlari
- Savdo va logistika



Rivojlanish rejasi - Barkadera hududidagi erkin zonada tashkil qilingan, Reina Beatrix aeroportiga yaqin, Arxitektorlar va dizaynerlar doimiy jalb qilib turiladi. Turizm sohasi ham rivojlantirilmoqda va erkin iqtisodiy hududlar turizm sohasi uchun xizmat qilishi rejalashtirilmoqda: Turizm sanoatini rivojlantirishga 1985 yildan buyon e'tibor berib kelinmoqda.



#### 2.4 – chizma: Arubada turizm sanoatining rivoji

**Manba:** <http://www.aruba.com/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

1985 yilda orol davlatga 2000 turist kelgan bo'lsa, 1996 yilga kelib ularning soni 7103 taga yetgan. Hozirgi kunda har yili keladigan sayyohlar soni 1.5 mln ni tashkil etadi va ularning aksariyati AQSH dan tashrif buyuradi.

Asosiy ko'ngilochar sport turlari va mashg'ulotlar – diving, windsurfing, golf, marjonqoyalarga suv osti ekskursiyalari, baliq ovi, kazino, shopping, jiplarda safari.

Arubada 40 dan ortiq plyaj mavjud. Ularning eng mashhurlari – Arashi, Druif, Baby Beach va Xadikurari. Orolning kurort zonalarini o'zining oyoqni qizdirmaydigan qumlari va plyajda yuradigan pushti flamingolari bilan mashhur. Hududiy festivallar Aruba turizmining yutuqlaridandir.

Diqqatga sazovor joylar:

- Noord o'zining tarixiy cherkovlari bilan mashhur.
- Sent-Nikolas shahrida joylashgan Arikok milliy bog'i
- Orolning simvoli hisoblangan – Oyberg. Bu yer sayyohlar uchun o'zining ko'prigi bilan mashhur bo'lgan, ammo u 2005 yilda buzilgan.
- Savaneteda Arubadagi eng eski uy saqlanib qolgan

- Kaliforniya mayog'i

MEHMONXONA: Mehmonxonalarning to'lish hajmi 1985 yilga qaraganda 5 baravarga oshgan; Deyarli barcha mehmonxonalarning parki va plyaji mavjud; Takliflar "Breakfast"dan tortib "All inclusive" gacha tashkil qilingan

## 2.5 – jadval

Aruba erkin zonasida biznes faoliyati uchun qulaylik va imtiyozlar

Soliq turlari	To'lanish shakli
Daromaddan olinadigan soliq	-2%
Tovar va jihozlar uchun import bojlari va aksiz solig'i	Olinmaydi
Tovar aylanmasidan soliq	Olinmaydi
Dividend solig'i	Yo`q
Mulkka egalik qilish huquqi	to'liq
Biznes Litsenziya Aktlaridan	Ozod
Minimum investitsiya solish qiymati	Belgilanmagan

**Manba:** <http://www.aruba.com/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Aruba 2020 yilga kelib yoqilg'idan foydalanishni 100% to'xtatib, quyosh batareyalari va shamol tegirmoni energiyasidan foydalanishni rejalashtirilmoqda. Buning hisobiga Karib dengizidagi eng katta Solar park tashkil qilingan, 14000 quyosh batareyalari o'rnatilgan bo'lib, 3.5 megawatt energiya ishlab chiqaradi, 2500 ta uyni energiya bilan ta'minlaydi. Bu esa iqtisodiyotga foyda bo'lib hisoblanadi.

## 2.2 Turistik erkin iqtisodiy hudud barpo etishda Rossiya tajribasi

2005 yilda rivojlantirish yo'nalishlaridan biri sifatida Rossiya Federatsiyasining "Rossiya Federatsiyasi maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida", Federal qonuni qabul qilindi. Bu qonun Maxsus iqtisodiy hududlarni boshqarish uchun federal agentligi (MIX), maxsus iqtisodiy zonalar (MIX), Shuningdek, amalga oshirish bo'yicha shartnomalar bajarilishini nazorat qilib boshqarishda sanoat ishlab chiqarish (o'tkazish) davlat xizmatlari va huquqni muhofaza qilish vazifalarini ta'minlash uchun hamda maxsus iqtisodiy zonalarida texnologiya rivojlantirish va turizm faoliyatini amalga oshirish uchun xizmat qilmoqda.

Maxsus yoki erkin iqtisodiy hududlar esa davlat iqtisodiy va ilmiy salohiyatini, shuningdek, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga, investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi.



### 2.5 – chizma: Rossiyada tashkil qilingan EIHLar

Manba: <http://www.russez.ru/> ma`lumotlari asosida tayyorlangan

Ayni paytda, Rossiya Federatsiyasi 13 maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etilgan, bular ikkita sanoat ishlab chiqarish, to'rtta texnologiya-innovatsion va yettita turistik sog'lomlashtirish hududlari bo'lib hisoblanadi. Mazkur hududlarda 74 tadan ziyod kompaniyalar faoliyati tashkil qilingan.

Rossiyada erkin iqtisodiy hududlarni barpo etish quyidagi etaplarda amalga oshiriladi:


- Rossiya iqtisodiy taraqqiyot vazirligi (keyingi o`rinlarda RITV deb nomlanadi) tomonidan maxsus iqtisodiy hudud barpo etish uchun tanlov e`lon qiladi;
- Bu tanlov uchun Rossiya Federatsiyasi subyektlari va mahalliy hokimiyat organlari birgalikda arizalarni ko`rib chiqib RITVga taqdim etadilar;
- Maxsus komissiya va unda zarur bo`lsa ekspertlar guruhi tuzilib tanlov o`tkaziladi hamda g`oliblar aniqlanadi;
- So`ng maxsus erkin iqtisodiy hudud barpo etilishi to`g`risida hukumat qarori qabul qilinadi va bu zona qanday tipga taaluqli bo`lishi aniqlanadi;
- Shundan so`ng Rossiya Federatsiyasi Hukumati, batafsil moliyalashtirish, mulk, va hokazo masalalarni tartibga solish bo`limi hamkorlikda maxsus iqtisodiy zona tashkil etish hamda kommunal shakllantirish uchun shartnoma tuziladi. Bu shartnoma maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etish va rivojlantirishda asosiy hujjat bo'lib qoladi;

- Bu jarayonlar amalga oshirilgach, konsepsiya ishlab chiqiladi, bu konsepsiyada EIH barpo etilishining foydali va zarali tomonlari, iqtisodiyotga ta`siri, hukumat oldidagi vazifalar barchasi atroflicha ko`rsatiladi;

- So`ng hudud aniqlab olinadi va shundan so`ng qurilish ishlari olib boriladi. Bu jarayonda esa har bir bosqichga alohida e`tibor qaratilishi lozim. Rossiya federatsiyasi har bir erkin iqtisodiy hudud barpo etishda aynan Shunday ketma ketliklardan foydalanadi.

Sayyohlik va dam olish zonolari ya`ni turistik erkin iqtisodiy hududlar bu juda qiziq maxsus iqtisodiy zonalar hisoblanadi. Ular Rossiya aholisiga yaqin. Rossiyada 2008-2010 yillarda mavjud bo`lgan sayyohlik biznes infratuzilmasi xalqaro standartlarga javob bermas edi, chunki fuqarolarning katta soni asosan chet elga zamonaviy sayohlik va dam olish joylarini tomosha qilish, umuman, dam olish maqsadida borib kelar edi. Aslida turizm sohasini rivojlantirish hamda turistlar oqimini ko`paytirish uchun mavjud tarixni saqlab qolish bilan bir qatorda zamonaviy madaniyat hamda infratuzilmani rivojlantirish kerak.

Turistik-rekratsion tipdagi hududlarni barpo etish Rossiya Federatsiyasining turistik jozibadorligini oshirish uchun xizmat qildi. Oxirgi bir necha yillar davomida kirish turizmi segmentlarida potensial inqiroz kuzatila boshlangan edi. 2004 yilda Rossiyaga 2,6 mln. chet ellik sayyohlar tashrif buyurgan bo`lsa, 2005-2007 yillarda bu ko`rsatkich 2.3 mln.ga tushib ketdi va nihoyat 2008 yilda 2,2 mln.ni tashkil etdi. Bu esa 1997 yilgi ko`rsatkichdanda pastroq darajada edi.



**2.6 – chizma: Rossiyada kiruvchi turizm ko`rsatkichlari**

**Manba:** UNWTO ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Bu ko`rsatkichlar esa yildan yiga Rossiyada kiruvchi turizm sonining pasayib borayotganligini izohlaydi. Rossiya ulushiga butun dunyo kirish turizmining 7-8%igina to`g`ri kelgan. 130 ta sayohat qilinuvchi mamlakat ichida 64 – o`rinni egallagan. Vaholangki, UNWTO ma`lumotlariga qaraganda infrastrukturaviy jihatdan Rossiya Federatsiyasi yiliga 40 mln chet el turistlarini qabul qilish imkoniyatiga ega edi. Shundan kelib chiqqan holda, Rossiya hukumati 2007 yilda sayyohlik-sog'lomlashtirish zonolari tashkil etish hamda maxsus iqtisodiy zonalar rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bunda bevosita mahalliy aholining imkoniyatlari doirasi baholandi. Shundan so`ng 2008 – yilda Rossiya hududida TEIH barpo etish birinchi infrastrukturaviy ob`ektlarning qurilishidan boshlandi. Birinchi bosqich 2008-2012 yillarni o`z ichiga olib, bu 4 yil davomida rejalashtirilgan hududlarda turistik obyekt va infrastrukturani ishga tuShurish rejalashtirildi. So`ng turistik sayyohlik dam olish zonalarini to`liq ishga tuShurish kabi rejalar maqsad qilib olingan. 2012 – yilga kelib to`liq hajmda Oltoy qirg`ogidagi “Moviy katun” hamda Oltoy Respublikasidagi “Oltoy vodiylari” TEIHLar faoliyati boshlandi. Bunday turistik erkin iqtisodiy hududlarni barpo etishdan asosiy maqsad Shundan iborat ediki, mamlakatga kelayotgan turistlar oqimini yanada oshirish bilan bir qatorda, ichki turizmni ham rivojlantirish. Shunday qilib Rossiya Federatsiyasi tomonidan 2007-2016 yillar davomida 7ta turistik erkin iqtisodiy hududlar barpo etildi. Ular Federatsiyada chet ellik turistlar oqimini sezilarli darajada oshishiga turtki bo`ldi. Barpo etilgan bunday hududlarning ba`zi birlarini o`rganib chiqamiz:

### **“MOVIY KATUN” TURISTIK EIH**

Moviy Katun – Oltoy o`lkasida joylashgan turistik-rekreatsiya tipidagi



**БИРЮЗОВАЯ КАТУНЬ**  
АЛТАЙСКИЙ ПАРК ПРИКЛЮЧЕНИЙ

EIH. Ushbu EIH 2007-yil 3-fevraldagi Rossiya Federatsiyasi qarori bilan tashkil topgan.

“Moviy Katun” turistik EIH Oltoy o`lkasida ekologik, sog'lomlashtirish, suv,

sport turizmini hamda boshqa xil turizm turlarini rivojlantirish maqsadida yaratilgan.

“Moviy Katun” turistik EIH Oltoy o’lkasi hududida, Katun daryosining chap qirg’og’ida “Qizil tosh” tog’lari oldida joylashgan bo’lib, umumiy 3326 ga. maydonga ega, hududiy Oltoy Respublikasi bilan chegaradosh.

Iqtisod: 2009-yil yozida “Moviy Katun”da 18 ta rezidentlar ro’yxatga olingan bo’lib, umumiy kiritilgan investitsiyalar hajmi 9 mlrd. rublni tashkil etdi. 2012-yil oktabr oyida ichki turizmni rivojlantirish hududi hisoblangan “Moviy Katun” turistik EIH deb yuritilishi 2055-yilgacha uzaytirildi, hamda ushbu qonun EIH rezidentlariga soliq imtiyozlari va hukumat tomonidan yordam huquqini berdi.

Moviy Katun turistik EIH da bir nechta joylashish maskanlari mavjud:

- “Сказка” mini-otel;
- “Кедровый стан” mehmonxonasi;
- Ko’l bo’yidagi Tavdin qarorgohi;
- “Малина” mehmonxonasi;

## 2.6 – jadval

### Tavdin qarorgohining joylashuv narxlari

ORALIQ	JOYLASHISH SHAKLI	NARXI
01.06 (12-00 dan keyin) - 22.06.2015y. (10-00 gacha)	kattalrga- asosiy o`rin	510 rub.
	kattalrga - qo`shimcha	360 rub.
22.06 (12-00 dan keyin) - 17.08.2015y. (10-00 gacha) ISH KUNLARI	bolalar uchun-asosiy o`rin	450 rub.
	bolalar uchun - qo`shimcha	330 rub.
	kattalrga-asosiy o`rin	570 rub.
	kattalrga - qo`shimcha	430 rub.
	bolalar uchun-asosiy o`rin	520 rub.
	bolalar uchun - qo`shimcha	360 rub.

22.06 (12-00 dan keyin) - 17.08.2015y. (10-00 gacha) DAM OLISH KUNLARI	kattalrga-asosiy o`rin kattalrga - qo`shimcha	650 rub. 580 rub.
	bolalar uchun-asosiy o`rin bolalar uchun - qo`shimcha	560 rub. 540 rub.
18.08 (12-00 dan keyin) - 31.08.2015y. (10-00 gacha)	kattalrga-asosiy o`rin kattalrga - qo`shimcha	510 rub. 360 rub.
	bolalar uchun-asosiy o`rin bolalar uchun - qo`shimcha	450 rub. 330 rub.

Manba: <http://www.russez.ru/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

## 2.7 – jadval

### «Малина» mehmonxona kategoriyalar va narx

Kategoriya	Bir kishi uchun belgilangan narx, rubl	Bitta xona uchun belgilangan narx, rubl
Polu lyuks (ikki o`rinli)	900	1800
Polu lyuks+ (ikki o`rinli)	1150	2300
Qulay (ikki o`rinli)	1300	2600
Appartament (4/6 o`rinli)	4 asosiy o`rinlar+2 qo`shimcha, oshxona(muzlatgich, gaz,choynak,idish- tovoq), vanna xona, balkon,televizor.	
	4200	

Kategoriya	Bir kishi uchun belgilangan narx, rubl	Xona uchun belgilangan narx
Polu lyuks (ikki o`rinli)	1150	2300
Polu lyuks+ (ikki o`rinli)	1300	2600
Qulay (ikki o`rinli)	1450	2900
Appartament (4/6 o`rinli)	4 asosiy o`rinlar+2 qo`shimcha, oshxona(muzlatgich, gaz,choynak,idish- tovoq), vanna xona, balkon,televizor.	
	6200	

Manba: <http://www.russez.ru/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Ovqatlanish xizmatlari: Moviy Katun turistik EIH da ovqatlanish uchun bir qancha qulayliklar yaratilgan. Mehmonxonalar restoranlaridan tashqari bir qancha restoran hamda umumiy ovqatlanish maskanlari mavjud:

- “Moviy Katun” oshxonasi;
- “Buxta” kafesi;
- Kemada restoran;
- Tavdin g’orlari oldida kafe kabilar Shular jumlasidandir.

Ushbu turistik EIH da animatsion muhit juda mukammal shakllangan. Bu yerda Kayakingda qatnashish, kazinoda o’ynash, turli xil suv sporti bilan Shug’ullanish mumkin. Ekstremal turistlar uchun turli xil qayiqda suzish mashg’ulotlari shakllantirilgan.

### **QRIM – ERKIN IQTISODIY HUDUDI**

Erkin iqtisodiy hudud (EIH) — bu tadbirkorlik va boshqa xo‘jalik faoliyati bilan Shug’ullanish uchun shart-sharoitlarni odatdagiga qaraganda qulayroq qilib, aniq belgilangan chegara va maxsus huquqiy rejim (tizim)dagi suveren mamlakatning ma’lum bir hududidir.

EIH — investitsiyalarni alohida mintaqalar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslarni kam chiqindili va chiqindisiz qayta ishlovchi yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro aloqa va hamkorlikka ta’sir o‘tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida soliqqa tortish, valyuta, bojxona va Shu kabilarni tartibga solishdagi alohida tartib va shart-sharoitlar o‘rnatadigan huquqiy normalar yig‘indisidir.

Bunday erkin iqtisodiy hududlardan yana biri Qrim TEIH bo‘lib hisoblanadi. Qrim – bu 27 ming kv.km maydonga ega bo‘lgan yarimorol. Qora Dengiz va Azov Dengiziga chiqish imkoni bor. Qrim hududida ikkita yarim orol mavjud: Kerchenskiy va Tarxankutskiy. Quruqlik bo‘ylab Ukrainaning Xerson viloyati, dengizdan esa Bolgariya – Turkiya – Ruminiya – Gruziya bilan chegaradosh.

TARIXI: Qrimda - Qadimgi yillarda bizga ma’lum bo‘lmagan Kimmerlar yashagan (XII asr mil.avv.). Mil.avv. VII o‘rtalariga kelib Kimmerlar Skifflar

tomonidan hududdan asta-asta qisib chiqara boshladilar. Qrimning o'zida va tog'larda Skiflar aholisi yashay boshladi. Qrim tog'lari va tog' yonbag'rlarida Tavrlar ham yashagan. Shundan ham Qimning qirg'og'ida joylashgan Tavrida to'gi nomlangan.

Qrim hamda Sevastopol TEIH 2015 – yil 1-yanvardan boshlab bunyod etila boshlandi. Qurilish muddati sifatida 25 yil muddat belgilandi. Hujjatlarga asosan, korxonalar quyidagi yo`nalishlarda turizmni rivojlantirsa EIHlarning umumiy yagona registriga a`zo bo`lishi mumkin. Bular: sanatoriya-kurortlar, turizm, qishloq xo`jaligi, qayta ishlab chiqarish, iqtisodning yuqori texnologiyali tarmoqlari, port va transport infrastrukturasini, kemasozlik kabilar bo`lib hisoblanadi.

### **Quyidagi diqqatga sazovor joylari mavjud:**

#### “Ласточкино гнездо” qasri

- Birinchi bo'lib bu qasr XIX-asrida bo'lib o'tgan Rossiya-Turkiya urushidan keyin Qrim Shahridagilar Bosh Generaliga atab qurdirganlar.
- 1970-yilda Qasr rekonstruksiya qilingan.
- Qasrning hozirgi holati Germaniya baroni Rudolf Fon Shtengel tomonidan bo'lgan.

#### “Царский курган” yo`lagi

- Tepalik ichida 36 metr uzunligi bo'lgan, toshlardan bezak qilib qurilgan yo'lak mavjud. Yo'lak ichida piramidada bo'lgandek his etish mumkin.

#### “Алупкинский парк” nomli park

- Park maydoni 40 gektar. Uning maydonida 200 ga yaqin o'simliklar turi mavjud. Boshqa davlatlardan keltirilgan o'simliklar aklimatizatsiya bo'lgan.

#### “Белые Камни” qal`a

- Avvalda bu ikki qal'a qirg'oq bilan bog'langan bo'lgan. Yillar o'tgani sayin dengiz suvi bu bo'glovchi yo'lakni yemirib tashlagan. XX-asr boshlarida qal'alarning birida restoran ochishi rejalashtiringan. Ammo Jahon urushi boshlangani sababli amalga oshmagan.

### “Воронцовский дворец” qasri

- 1828-1848 yillar mobaynida bu qasr Novorossiysk grafi M.S.Voronsovskiyning rezidentsiyasi tariqasida qurilgan.
- Qasr butunlay Angliya janrida qurilgan

### “Бельбекский каньон” nomli sun`iy vodi

- Bu kanyon orqali Qrim to`glarining ichiga kirish uchun faqatgina bitta yo`l hisoblanadi.
- Bu kanyonni Tog`lar darvozasi deb ham ataydilar.

### “Никитский ботанический сад” bog`i


- 1811 yilda Peterburg Imperatori Aleksandr xohishi bo`yicha Botanika bo`gi barpo etilgan.

## 2.3 Xitoy xalq respublikasining turistik erkin iqtisodiy hududlari

Xitoy Xalq Respublikasi Erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiyotning barcha sohalarini modernizatsiyalash va yuqori texnologiyali raqobatbardosh ishlab chiqarishga erishishda muhim omil bo`lmoqda. Oxirgi o`ttiz yil davomida Xitoyda kuzatilgan iqtisodiy o`sish haqiqatda “iqtisodiy mo`jiza” bo`lgani hech kimga sir emas.

Uning rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlaydigan bo`lsak, 1976-yilgacha Xitoy yopiq iqtisodiyot hisoblanar edi. Ammo 1978-yilda Deng Syaopin tomonidan olib borilgan “Ochiq eshiklar” siyosati va Shu maqsaddagi islohotlar natijasida Xitoy jahon iqtisodiyotiga integratsiyalasha boshladi hamda Xitoy YaIMi yiliga o`rtacha 10% o`sishga erishdi.





## 2.7 – chizma: Xitoy YaIM

**Manba:** <http://visasam.ru/> ma`lumotlaridan olingan

1979-2014-yillarda Xitoyning aholi jon boshiga YaIMi qariyb 16 marta, ya'ni 195 AQSh doll.dan 3583 AQSh doll.ga o'sdi.

2010-yilga kelib YaIM hajmi bo'yicha Yaponiyani ortda qoldirib, dunyodagi eng katta ikkinchi iqtisodiyotga aylandi. Shu davr mobaynida 500 mln.dan ortiq aholi qashshoqlikdan xalos bo'ldi. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'ldiki, ko'p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o'tish maqsadida 1978-yildan boshlab "Ochiq eshiklar" siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Bunda Xitoyda turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar (EIZ)ni tashkil etish muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, EIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagicha edi:

- xorijiy kapitalni maksimal darajada jalb qilish, sanoatning ilmiy sig'imli sohalarini yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish;
- xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumini oshirish;
- EIZ joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Hong Kong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish;
- arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xomashyo salohiyatidan to'g'ri foydalanish;
- boshqaruv malakasiga ega bo'lish va milliy kadrlarni tayyorlash.

Xitoyda EIZlarning tashkil etilish jarayonini 4 bosqichda kuzatishimiz mumkin:



## 2.8 – jadval:Xitoy EIZlarni tashkil qilish bosqichlari

Manba: <http://www.ereport.ru/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Yigirmanchi asrning so'ngi o'n yilliklarida Xitoy o'z iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish uchun katta tavakkal qildi va muvoffaqiyatni qo'lga kiritdi. Bu tavakkalning o'ta ahamiyatlisidan biri bu mamlakat hududiga xorij tajribasini kiritish uchun erkin iqtisodiy hududlarni tashkil qilish edi. Xitoy hukumatining erkin iqtisodiy hududlar yaratishdan qo'ygan bosh maqsadi - yangi bozor munosabatlarini kichik bir maydonda sinab, so'ngra uni mamlakatga yoyish edi. Shuning uchun yigirmanchi asrning 80 yillarida 4 ta maxsus hududda (kichik bir territoriyada) tadqiqotni muvaffaqiyatli o'tkazib, so'ngra 90 yillarda yuzlab kvadrat kilometrli maydonlarga ushbu tartiblarni tarqatdi.

EIZlarning iqtisodiy texnologik taraqqiyot zonalaridan (ITTZ) farqi Shundaki, EIZ kattaroq hududda, ba'zan butun shahar yoki provinsiyada joylashishi mumkin.

EIZ rezidentlari uchun 5 yil davomida alohida soliq imtiyozlari tizimi yo'lga qo'yilgan. Birinchi 2 yil davomida ular umuman daromad solig'ini to'lashmaydi va keyingi 3 yil davomida soliqning faqatgina 50 % ini

to'lashadi, xolos. 2008-yilgacha foyda solig'i maxsus zonada joylashmagan korxonalar uchun 33 %, EIZ rezidentlari uchun esa 15 % etib belgilangan.

Savdo, qayta ishlash va import-eksport faoliyati bilan Shug'ullanuvchi EIZ rezidentlari uchun qo'shilgan qiymat solig'i 17 % deb belgilangan. Ammo EIZ hududiga olib kirilayotgan texnologiya va xomashyo uchun QQS va boj undirilmaydi. Lekin aksiz, shaxsiy daromad solig'i va boshqa soliq turlari imtiyozlardan xoli.

Bundan tashqari, EIZ rezidentlari uchun soliq bilan bog'liq bo'lmagan imtiyozlar ham joriy etilgan, ular yer, suv, elektr energiyasi, gaz, internet, bino ijarasi kabi to'lovlardan to'liq yoki qisman ozod etiladi.

## 2.9 – jadval

### Xitoydagi EIZlar

EIZ nomi	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni	IxtisoslaShuvi	Kiritilgan xorijiy investitsiyalar manbasi
Shantou	3000 dan ortiq	Neftkimyo, tekstil, poyabzal va elektronika, agrosanoat	Kiritilgan 95 % xorijiy investitsiyalar Hong Kong, Tayvan va Singapurga tegishli
Shenzhen	17500 dan ortiq	Yadro energetikasi, elektronika, mashinasozlik, yuqori texnologiyalar va turli xizmatlar	Kiritilgan 85 % xorijiy investitsiya Hong Kongga tegishli
Zhuhai	5000 dan ortiq	Og'ir sanoat, elektronika, dengiz va yo'l qurilishi, turizm va boshqa xizmatlar	Kiritilgan 80 % xorijiy investitsiyalar Hong Kong, Makao, Tayvan va Singapurga tegishli
Xiamen	4150 dan ortiq	Elektronika, tekstil, oziq-ovqat sanoati, kimyo sanoati va turizm	Kiritilgan 80 % xorijiy investitsiyalar Tayvanga tegishli
Hainan	7320 dan ortiq	Elektronika, telekommunikatsiya va yuqori texnologiya	Jami xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi shartnomalar 22,3 mlrd. AQSh doll.

Manba: <http://www.ved.gov.ru/> ma'lumotlari asosida tayyorlangan

## Xitoy YaIMi hajmini oxirgi yillarda tahlil qiladigan bo'lsak,



### 2.8 – chizma: Xitoy YaIMining provinsiyalar bo'yicha ulushi

Manba: <http://visasam.ru/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, YaIMda eng ko'p ulush erkin iqtisodiy zonalar joylashgan Xitoyning sharqiy va janubiy qirg'oqbo'yi hududlariga to'g'ri keladi.

### 2.10 – jadval


#### Xitoydagi TEIHLarning provinsiyalar bo'yicha ulushi

Provinsiyalar	O'рни	YaIM (CNY)	Nominal YaIM (ming AQSh doll.)	To'lov qobiliyati paritetida YaIM (ming AQSh doll.)	Real o'sish darajasi (%)	Jami YaIMdagi ulushi (%)
1	2	3	4	5	6	7
Butun Xitoy		63,646,270	10,361,117	17,411,575	7.4	100
Guangdong	1	6,779,224	1,103,605	1,854,578	7.8	10.65
Jiangsu	2	6,508,832	1,059,587	1,780,607	8.7	10.23
Shandong	3	5,942,659	967,419	1,625,721	8.7	9.34
Zhejiang	4	4,015,350	653,668	1,098,471	7.6	6.31
Henan	5	3,493,938	568,786	955,829	8.9	5.49
Hebei	6	2,942,115	478,953	804,868	6.5	4.62
Liaoning	7	2,862,658	466,018	783,131	5.8	4.50
Sichuan	8	2,853,666	464,555	780,671	8.5	4.48
Hubei	9	2,736,704	445,514	748,674	9.7	4.30
Hunan	10	2,704,846	440,328	739,959	9.5	4.25

Manba: Ван Ишоу. “Специальные экономические зоны в Китае: цифры и факты.” ma'lumotlari asosida tayyorlangan


Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki Xitoyga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi o'sish tendensiyasiga ega. Ayniqsa so'nggi yillarda eng yaxshi natija 124 mlrd.

Xitoyda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sanoatning asosiy ulushini egallaydi. U 1990-2015-yillar davomida 2,3% dan 25,9% ga ko'tarilgan hamda ushbu sohaning YaIMdagi ulushi ham sezilarli darajada o'sganligini ko'rishimiz mumkin.



## 2.9 – chizma: Investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sanoatining asosiy ulushi

Manba: <https://ru.investing.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi  
1990-2016-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar eksport-importining Xitoy jami eksport-importidagi ulushi (%)



## 2.10 – chizma: Xitoy eksport-import ulushi

Manba: <https://ru.investing.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi  
2015-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Xitoy umumiy eksportining 47,3% va importining 44,8%ini tashkil etgan. Ular yuqori texnologiyalar eksportida ham muhim rol o'ynaydi. 2002-2010-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan yuqori texnologiyalar eksporti 79 %dan 82 %ga ko'tarildi. Ko'rinib turibdiki, Xitoyda faoliyat yuritayotgan EIZlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

**Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlar:** Shantou, Shenzhen, Zhuhai, Hainan, Jiangsu, Shandong, Zhejiang, Henan, Hebei, Liaoning, Sichuan, Hubei va boshqalar. **Xitoydagi turistik erkin iqtisodiy hududlar:** shenchjen, Guangdong, Xaykou, Liupai, Ninxia, Dolyan, Chechjen, Chegju, Kanas, Biinxay, Chunmin, Syuni kabi hududlar faoliyati tashkil qilingan.

“Shenchjen”, “Chjuxay”, “Syamen”, “Shantou” hududlari yangi iqtisodiy munosabatlarni sinash maydoniga aylandi. Xitoy rahbariyati iqtisodiy o‘rinishni jadallashtirish uchun erkinlik borasida o‘ziga imkoniyatlar katta natijalarni olib kelishini tushunib yetdi, bunda F.Xayekning quyidagi so‘zlarini keltirish o‘rinlidir: “erkinlik samaradorlik bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri bog‘langan, iqtisodiyot qanchalik erkin bo‘lsa, kishilarning ijodkorligi Shunchalik ko‘p iqtisodiy kashfiyotlarni amalga oshiradi”. Xullas, ayrim masalalarda o‘ziga imkoniyatlar, erkinliklar ham iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirib yuborishi mumkin (bunga Xitoydagi Shenchjen, Shantou, Chjuxay, Xaynan kabi erkin iqtisodiy hududlari qisqa vaqt ichida erishgan yutuqlari yaqqol misol bo‘la oladi), hozirgi zamon taraqqiyoti Shundan dalolat beradiki, erkinlik bo‘lmasa mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi bo‘lmaydi.

Tadqiqotlar natijasida ma‘lum bo‘ldiki, ko‘p yillar davomida hukm surgan markaziy rejalashtirilgan iqtisodiyotdan zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadida 1978-yildan boshlab “Ochiq eshiklar” siyosati doirasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bunda Xitoyda turli shakldagi maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ)ni tashkil etish muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, MIZlarni tashkil etishdan asosiy maqsadlar quyidagicha edi:

- Xorijiy kapitalni maksimal darajada jalb qilish, sanoatning ilmiy sig‘imli sohalarini yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirish;
- Xalqaro mehnat taqsimotida samarali ishtirok etish, eksport hajmi va xorijiy valyuta tushumini oshirish;
- MIZ joylashgan hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni Gonkong, Singapur va boshqa yangi industrial davlatlaridagi kabi rivojlantirish;

- Arzon va ortiqcha ishchi kuchi hamda boy xom ashyo salohiyatidan to'g'ri foydalanish;
- Boshqaruv malakasiga ega bo'lish va milliy kadrlarni tayyorlash.

O'sha davrdagi Xitoyning eng muhim ustunliklaridan biri - katta miqdorda nisbatan arzon bo'lgan ishchi kuchining mavjudligi edi. Masalan, "Shenchjen" EIHDagi "Shenchjen kayfa texnologji" zavodi ishchisining o'rtacha oylik ish haqi 1000 yuan (125 dollar), mutaxassisniki esa 2000 yuan (250 dollar) bo'lgan. Bu ish haqini AQSHdagi oylik bilan solishtirsak, 20 marta kam edi, ammo Pekindagi oylikdan 2 marta ko'p, Xitoyning O'rta va G'arbiy rayonlaridagi ishchilar oladigan oylikdan esa 10 martalab ko'pdir. Shu tufayli Xitoyning EIHLariga ishga juda katta konkurs asosida ishga olinadi. Bu esa ularning ishga bo'lgan ma'suliyatini oshiradi. Bundan tashqari, Xitoyning ishchi kuchi qator maxsus sifatlarga ega: tartib intizomlarga qat'iy rioya qilish, berilgan vazifani puxta bajarish, o'qishga va begona tajribani olishga intilish kuchli, zaruriyat bo'lgan paytda har qanday ishni qilish, biznesga moyillikdir.

2014-yil oxiriga kelib Xitoyda 5 ta MIZ, 210 ta ITTZ, 15 ta chegaradosh iqtisodiy hamkorlik zonalari, 105 ta yuqori texnologiyali zonalar 13 ta erkin bojxona zonalari, o'nlab turistik hududlar faoliyat yuritayotgan edi. 2013-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar Xitoy umumiy eksportining 47,3% va importining 44,8%ini tashkil etgan. Ular yuqori texnologiyalar eksportida ham muhim rol o'ynaydi. 2002-2010-yillarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan yuqori texnologiyalar eksporti 79 %dan 82 %ga ko'tarildi. Ko'rinib turibdiki, Xitoyda faoliyat yuritayotgan EIZlar iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Xitoy yigirma birinchi asrning boshiga kelib anchagina farovon hayot darajasiga erisha oldi va xalqni dam olishga bo'lgan ehtiyoji kuchaya boshladi. Shuning uchun hukumat turizm sohasini rivojlantirishga katta e'tibor bera boshladi, jumladan, industriya kam kirgan regionlarda, tabiati go'zal go'shalarga boy joylarda turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratishni boshladi. Xitoy 2022

yilda 300 mln sayyoh uchun xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish uchun harakatni boshlab yubordi.

Turistik erkin iqtisodiy hududlar yaratish borasida qaysi mamlakat tajribasi bizga eng to'g'ri keladi, deganda, avvalambor Xitoyni aytish mumkin. EIHLarni yaratishda, undan foydalanishda Xitoy juda katta muvaffaqiyatlar qozona bildi. Shuning uchun Xitoy tajribasini o'rganish va uni iloji boricha O'zbekistonga qo'llash zarur. Xitoy birinchi navbatda ishlab turgan erkin iqtisodiy hududlarda turistik klasterlarni yarata boshladi. Keyin esa maxsus turistik hududlarni yaratishni ham boshladi. Biz ularning ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

### **SHENCHJEN – TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDI**

Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlari, xususan Xitoy, Qozog'iston, AQSH, Fransiya, Koreya Respublikasi, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlarda hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda, erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish an'anaga aylangan.

Jumladan Xitoyning Shimoliy — Sharqiy, Sharqiy va Janubiy Sharqiy rayonlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalarning dengiz yo'llariga chiqish nuqtai nazardan geoiqtisodiy jihatdan qulay joylashganligi erkin iqtisodiy hudud yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Shenchjen EIHNing tashkiliy tuzilishi:

- Iqtisodiy rivojlantirish boshqarish;
- Tijorat rivojlantirish boshqarish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi;
- Ta'mir va boshqarish;
- Ishchi kuchi boshqarish;
- Ilmiy va texnologik rivojlanish boshqarish;
- Ijtimoiy rivojlanish boshqarish;
- Rejalashtirish boshqarish;
- Moliyaviy boshqaruv

Shenchjen iqtisodiy hududi Guandongning Janubiy provinsiyasida joylashgan bo'lib, Janub tomondan Gongkongdan Shenchjen daryosi bilan ajralib turadi. U shimolda Guandundan va Janubda Xunjou bilan chegaradosh, Day Bey va Dapeng Bey bilan Sharqda Lingdun dengizi bilan va g'arbdan Pearl daryosi bilan chegaradosh. Shenchjen 310 ta daryoga va daryochalarga ega. Shahar hududi 1,991.64 kv.km maydonni egallab, seryog'in va quyoshli havosi bilan subtropik iqlimga ega. Shuningdek tropik mevalarga boydir. 2010 yilning 26 -avgustida XXRda birinchi EIH, Shenchjenni ochilganligining 30 yilligi nishonlandi. 2011-yilning oxirlarida Shenchjenning doimiy yashovchi aholisi 10,47 millionga yetdi. Hozirgi kunda Shenchjen XXRning eng rivojlangan hududlaridan, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YaIM bo'yicha XXR shaharlari orasida birinchilar qatorida turadi. 30 yil oldin Shenjen bir necha baliqchi qishloqlarning yig'indisidan iborat edi. XXR iqtisodiy islohatlari "arxitektor"i Den Syaopin tomonidan joriy qilingan islohatlar, birinchi tajriba bo'lmish Shenchjen shahrini keyinchalik esa butun Xitoyni dunyo bilan bo'gladi. Shenchjen subprovinsional darajadagi shahar.

Xitoy dunyosiga darvoza bo'lmish - Shenchjen tez rivojlangan shaharlarning biridir. Shahar shuningdek, Xitoy g'arbining yuqori texnologiyalar va manufakturalar markazi, portdan foydalanish bo'yicha to'rtinchi o'rinda turadi. Yuqori texnologiyalari, logistika, moliyaviy xizmat va madaniy sanoatlashish shaharning asosiy yo'nalishlaridir.




Shahar dizayni bilan ham mashhur, 6000 ta dizayn korxonalarida 600000 ishchisi bor. 19-noyabrda 2008-yilda Shenchjen YUNESKOning Bunyodkor Shaharlar Markazi a'zosi bo'lgan va — "dizayn shahri" maqomini olgan. Shenchjen – ekologik yashil shahardir, uning yarim maydoni tabiatni himoya qilishga qaratilgan bo'lib, o'sha hududda qurilish taqiqlanadi. Zona himoyasi

uchun xalqaro tashkilotlardan va Xitoy hukumatidan Milliy Bog` shahri, Milliy Fuqaroviy Bog` nomli maxsus oltin sovg`a olgan.

Shenchjen – ko`ngilli yordam va xayriya keng tarqalgan shaharlardan biridir. Ajoyib Shenchjen shahri Janubiy Xitoyning mashhur turistik joyi hisoblangan. 2010-yili — New York Times — gazetasi ma`lumotlariga binoan, jahon bo`yicha turistlarni o`ziga eng ko`p jalb etadigan markazlarning 31 lik ro`yxatiga kirgan. Shenchjen maxsus parklari bilan mashhurdir. Tabiat va sohil bo`yi kurortlarini sevuvchi sayohatchilarni magniti hisoblangan. Shenchjen 2011-yil 26 yillik Universiadani qabul qilgan. O`yin tarixida eng yosh shahar bo`lgan. Universiada Xitoyda o`tkazilgan 3-sport musobaqasi edi. Birinchisi Xitoyda o`tkazilgan, ikkinchisi Pekinda Olimpik o`yin va Guanchjouda Osiyo o`yinlari bo`lgan. Turizm rivojlanishi uchun ideal tabiiy diqqatga sazavor joylarga juda boy.

Shenchjen Xitoyning barcha katta va kichik shaharlarning eksport hajmini 18 yil ketma ket eng cho`qqisini zabt etdi. Shaharda 500 ta dunyo miqyosidagi global kompaniyalarning 180 ga yaqin bo`limlari mavjud.



### 2.11 – chizma: Shenchjen iqtisodiy ko`rsatkichlari

Manba: <https://ru.investing.com> ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2011-yilda Shenchjen iqtisodi rivojlanishning eng cho`qqisiga ko`tarildi. Xitoy shaharlari ichida to`rtinchi o`rinni egallagan holda, YaIM 10 % ga ya`ni 1 trln.100 mlrd. yuanga o`sdi. Iste`mol tovarlari sotuvi 17,8% ga ya`ni 352,09

mlrd. yuanga oshdi. Tashqi savdo esa 19,4% ga, ya`ni 414,1 mlrd dollarga oshdi.

Bundan tashqari, Shenchjen logistikasining umumiy raqobatbardoshligi bo`yicha rivojlangan mamlakatlar standartlariga yaqin va tezkor samaradorligi bilan Xitoydagi boshqa shaharlar orasida yetakchilik qilgan. Shenchjen porti 7 yildan buyon dunyodagi to`rtinchi gavjum konteyner porti sifatida ish olib bormoqda. Shenchjen logistikasi 2010-yilda shaharlar YaIM ning 9,74% ni tashkil qilgan holda qo`shimcha qiymatning 92,63 mlrd. yuan miqdorida Xitoyga foyda keltirgan.

Shenchjen global ko`p funksiyali va yuqori samarali logistik markazda qurilgan. Logistika markazi va internet tizimi shaharlar logistikasining jadal rivojlanish asosini tuzishga yordam beradi. Shenchjen Xitoydagi eng yaxshi rivojlangan logistika sektoriga ega. Shenchjendagi yuk agentliklari jadal rivojlanib, bu yerdagi 3000 kompaniyadan 100 dan ortig`i dunyodagi yirik yuk agentliklari sirasiga kiradi. Shenchjenning —”Shenchjen fond birjasi uyi” Xitoy xavfsizlik markazlaridan biri hisoblanadi. 1949-yildan beri Xitoy bozoriga xorij banklarining qayta kirib kelishining alomati sifatida 1982-yilning yanvarida Nanyang Tijorat Bankining Shenchjen shahobchasi ochildi. Hozir shaharda 33 ta xorijiy banklar, 4 ta shaxobcha va 5 ta vakillik idoralari bor.

Shenchjen ilmiy parki 1999-yil barpo etilgan. Ushbu parkning asosiy vazifasi 1-toifali mutaxassislarni o`qitish va tayyorlash, sanoat va izlanish resurslarini birlashtirish, ilmiy izlanish tashkil etish, Shuningdek Shenchjen va Gongkong izlanish markazlari orasida hamkorlik aloqalarini o`rnatishdan iborat. Hozirda bu ilmiy park xorijdagi 52 ta mashhur universitetlar kuchlarini birlashtirgan.

Ommaviy axborot vositalarida xabar berilishicha, Shenchjen sanoat parki (keying o`rinlarda ShSP deb yuritiladi) yuqori texnologiyali innovatsion yutuqlarga erishgan. ShSP 83 ta milliy laboratoriya, 3 ta milliy injenerlik laboratoriya, 8 ta milliy texnik parklarga ega. 3 ta malakali patent xizmatlari institutlari ushbu sanoat zonada o`z offislarini tashkil etgan.

Shenchjen 2008-yil 19-noyabrda UNESCO tomonidan «Creative Cities Network» (Bunyodkor shaharlar tarmog`i) ga a`zolikka qabul qilingan va UNESCO ning «Dizaynlar shahri» sharaflini olishga muvassar bo`lgan.

Xitoy multipilikatsiya sanoati asoslaridan biri bo`lgan Shenchjen, xorijiy kompaniyalar uchun eng ko`p multafilmlar ishlab chiqaruvchi birinchi shahar hisoblangan. 1989-yil o`rtalarida Gonkongda birinchi multipilikatsiya kompaniyasi barpo etilgan. Shundan beri Shenchjen 70% Xitoy multipilikatorlarning uyi hisoblanadi. Bugungi kunda Shenchjen shahri multfilm va animatsion filmlar ishlab chiqarish bo`yicha dunyoda muhim o`rin egallaydi. Unda multafilmlar, 3-D animatsion filmlari va kompyuter o`yinlari uchun dasturlar yaratilgan.

«Shenchjen» maxsus iqtisodiy hudud - tashqi bozorga mo`ljallangan va o`zida eksport-ishlab chiqarish, savdo va ilmiy-texnik funksiyalarni mujassamlashtirgan kompleks EIHDR. Shenchjen - ham quruqlik, ham havo, ham suvdan keladigan yuklarni qayta ishlay oladigan Xitoydagi yagona shahardir. Shaharda moliya bilan shug`ullanuvchi 1168 moliyaviy tashkilotlar va 900 markazlar bo`lib, ularda 20 ming kishi faoliyat olib boradi hamda moliyaviy xizmatlar ko`rsatadi. Investitsiya sharoitini yaxshilash uchun xorijiy investorlarga xizmat va investitsiyalarni qo`llab – quvvatlash markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar xorijiy va milliy investorlarga qonunchilik bo`yicha maslahatlar beradi, loyihalarni ekspertiza qiladi. «Shenchjen» EIHDRda biznes, ishlab chiqarish, turizm uchun maksimal sharoit qilingan va bu sharoit yildan-yilga takomillashtirib borilgan. «Shenchjen» iqtisodiy hududidagi qo`shma korxonalarda mehnat unumdorligi davlat sektoriga nisbatan 5-6 barobar, kapital qo`yilmalarining samaradorligi 2 barobar yuqoridir. Dastlabki yillarda mahsulot ishlab chiqarish o`rtacha bir yilda byudjet mablag`larini ancha ishlata olgan poytaxt Pekinda 11,3 % ga o`sgan bo`lsa, Shanxayda 21,4 %, 4 erkin iqtisodiy hudud joylashgan Guandun provinsiyasida 31,5% o`sgan.

«Shenchjen» mamlakatni «jadal ravishda modernizatsiyalash» usuli sifatida ham chiqadi, chunki u bozor transformatsiyasi bilan parallel ravishda

jahon iqtisodiyotiga kirishni ta'minlaydi. Boj olishning, soliqqa tortish, subsidiyalash, baho belgilashning alohida tartibi va mexanizmini hamda valyutaning o'ziga xos tartibini o'rnatish, ko'plab moliyaviy, moddiy, texnologik va mehnat resurslarini jalb qiladi. Buning oqibatida iqtisodiy potensial tez rivojlanadi, valyuta tushumlari ko'payadi, ichki bozor raqobatbardosh tovar va xizmatlar bilan to'yinadi, eksport anchagina ko'payadi. Xitoydagi "Shenchjen" EIH "Osiyo ajdarholari" 20 yilda bosib o'tgan taraqqiyot yo'lini 10 yilda bosib o'ta oldi.

"Shenchjen" da turistik - kurort tizimi ko'llardagi 5 ta turistik markazni, dengizdagi 4 ta kurortni, botanika bog'i, zooparkni o'z ichiga oladi: 2-3 kunga keluvchi turistik guruhlar uchun viza imtiyozlari bor. Hududning tarkib topish davrida har yili uning har bir gektariga taxminan 17 mln. AQSH dollari sarflangan. Hammasi bo'lib 1987 yildan boshlab 22 mlrd. dollar jalb qilingan. 1999 yilda Shenchjen hududining eksporti 3 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Hududda turizm rivojlanishi uchun ideal tabiiy diqqatga sazavor joylarga juda boy. Quyida rasmlar turizmga katta e'tibor berilayotganini isbotlab beradi.



### **«Shenchjen» hududida tashkil etilgan turistik zonadan lavhalar.**

«Shenchjen» Xitoyning barcha katta va kichik shaharlarning eksport hajmini 18 yil ketma ket eng yuqori cho'qqisini zabt etdi. Shaharda 500 ta dunyo miqyosidagi global kompaniyalarning 180 ga yaqin bo'limlari mavjud. Shahar iqtisodiy qudrat jihatidan Xitoy shaharlari ichida to'rtinchi o'rinni egallaydi. O'tgan davrlar mobaynida ikki mln. kishiga mos mehmonxonalar qurildi. 30 ming kishilik kichik shahar 30-40 qavatli binolarga ega, bir necha million aholili, zamonaviy shaharga aylandi.

## GUANGDON TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDI

Guangdong (Xitoy Trad 廣東, mashqlar 广东, pinyin: Guǎngdōng ...) - janubiy Xitoyda joylashgan bir viloyat. Guangdong Janubiy Xitoy dengizi sohilida Janubiy Nanling tog'larida joylashgan va Gonkong maxsus ma'muriy viloyati (Syangan) va Xitoy Taypeyi, Shuningdek Guangxi, Hunan, Jiangxi, Fujian va Xaynan viloyatlarida bilan chegaradosh. Viloyat ma'muriy markazi - Guanchjou shahri. Tarixi, madaniyati va Guangdong viloyati tili (sheva) mamlakatning boshqa hududlaridan juda farq qiladi (qarang. Kanton sheva). So'nggi yillarda, Guangdong Xitoyda eng rivojlangan viloyatlaridan biriga aylandi. Guangdong EIH bo`lib hisoblanadi. Bu viloyatda turizm sohasida quyidagi imkoniyatlar mavjud.

Bugungi kunda Xitoydagi eng katta viloyatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi ham yuqori. 2014-yilda, Guangdong nominal yalpi ichki mahsulot 570 milliard dollarni tashkil etdi, va u milliy yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 12% edi. Bunda turizmning ulushi 4,3%ni tashkil qiladi. Xitoy Tashqi savdosining yirik qismini Guangdong tashkil qiladi. Iqtisodiy o`shish jihatdan Singapur va Syanganlarni ortda qoldirgan.

Turistik mavsum Guandongda bahori yoki kuzda bo'ladi. Guangdong subtropik iqlimga ega. Yillik yog'in miqdori o'rtacha 1500-2000 millimetr va 19<sup>0</sup>C harorat o'rtacha - 26<sup>0</sup>C. Yozi juda issiq, nam va ho'l bo'lishi mumkin. Bir qator shaharlari mavjud bo`lib, ularda turistlar uchun keng imkoniyat va qulayliklar yaratib berilgan. Guanchjou - eng yirik shahri va poytaxti; Iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi bo`lib Guangzhou va Shenzhenlar hisoblanadi.

Mintaqada bir necha yirik zamonaviy aeroportlar bor: Guangzhou, Hong Kong va Aomin kabilarda ko'plab xalqaro parvozlari amalga oshirilsa, Shenzhen, Zhuhai va Shantou ichki Xitoy parvozlari uchun mo`ljallangan. Guangdong ovqatlanishga katta e`tibor qaratiladi, xususan, Guanchjouda ko'p restoranlar bor. Bundan tashqari bozorlari ham juda mashhur bo`lib, tungi bozorlar, odatda,

sayyohlar va mahalliy aholi bilan ham juda gavjum bo'ladi. Har yili mazkur mamlakatda Xalqaro sayyohlik ko'rgazmasi CITIE (Xitoy (Guangdong) Xalqaro turizm sanoat Expo) tashkil qilinadi. Bu xalqaro biznes hamjamiyati a'zolari o'rtasida mashhur Xitoy sayyohlik mahsulotlari va xizmatlarini sotishda asosiy joylardan biri hisoblanadi. Mazkur ko'rgazmalarning tashkil qilinishi turizm sohasining rivoji uchun xizmat qiladi.


Har yili Guangdongda tashkil etiladigan mahalliy festivallarda turistlar oqimi oshishi kuzatiladi. Bahor festivali va Lantern festivali kabi an'anaviy Xitoy bayramlari mahalliy aholini qiziqtirish bilan bir qatorda sayyohlar e'tiborini ham jalb qiladi. Guanchjou sayohat qiluvchilar uchun Pearl River qismi bo'ylab Kruizlar tashkil qilingan bo'lib bunda mamlakatning uchinchi eng uzun daryosi bo'ylab sayohat ajoyib manzarani taqdim etadi. Bunday sayohatlar har yili 15-30 aprel va 15 dan 30 oktyabr sanalarida tashkil etiladi. Aynan shu davrda turistlar oqimi oshadi. Har yili oktyabr yoki noyabr oylarida Guanchjouda Xalqaro oziq-ovqat festivali o'tkazilib, unda turli taniq taomlar taqdim etiladi, bu bayram o'yin-kulgi, savdo va sayyohlik faoliyatini ifodalovchi mashhur sayyohlik bayrami hisoblanadi.

<https://www.tursvodka.ru> internet manzilidan mazkur mamlakatga sayohat uchun ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Bundan tashqari, booking.com, wicitravel.ru internet manzillarida ham mazkur EIH turizmi va sayohatlari xususida tushunchalar keltirilgan. Sayyohlar uchun keng imkoniyatlar yaratilishi bilan bir qatorda qiyinchiliksiz tur buyurtma qilish imkoniyatlari yaratilgan. Turistik erkin iqtisodiy hududlarning faoliyati rivoji uchun esa asosiy vosita bo'lib internet tarmog'i xizmat qiladi.

### **XAYKOU TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDI**

Xaykou (Dengiz darvozasi) - Xaynan orolining poytaxti, iqtisodiy, madaniy, tijorat hamda gavjum shaharlaridan biridir. Xaykou Xaynan orolining sharqida, Leychjoubandao Myarim orolining qarshisida joylashgan. Er maydoni 2304 kv. km., aholisi 1.7 mln kishi. Xaykouni yana "kakoslar shahri", "palmalar shahri", "quyosh shahri" deb atashadi. Xitoydagi eng katta orol

Xaynanda joylashgan bu hudud orldagi eng katta erkin iqtisodiy hududdir. Qirg'og'ining uzunligi 130 kmga cho'zilgan. Shahar 4 ta katta regionga bo'linadi: Syuin, Lunxua, Meylan, Shunshan. Shahar 1980 yillarning oxirida Xaynan bilan birga erkin iqtisodiy hudud deb elon qilingan edi. Ekspertlarning fikricha, bu orolga keladigan turistlarning 97% ini xitoyliklar tashkil etadi, chunki Xitoy kundan kunga yangilanib bormoqda. Bu yerga turistlar sarflagan mablag'larning atigi 20%i savdoga sarflangan. Qolgani asosan dam olishga sarflangan. Bu yerga doimiy savdo uchun keladiganlarga bir qulaylik yaratilyapti, yani mijozlar o'zlari xohlagan tovarni bu yerda emas, balki o'zlari yashab turgan joydan sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Yana bir qulaylik Shundan iboratki, bu erda 2014 yildan xorijiy turistlar, mahalliy turistlar uchun bojsiz savdo- sotiq boshlandi. Bunda sayyohlar tovarlarni shahardagi bojsiz magazinlardan xarid qilishlari va xarid qilingan tovarlarni aeroportdan maxsus hujjatlarni ko'rsatib, maxsus xonadan olishlari mumkin. Bundan faqatgina 18 yoshga to'lgan va ulardan kattalar foydalanishlari mumkin, qaysiki orolni samolyotda o'zi tark eta oladiganlar (voyaga etganlar.) Norezidentlar bu bojsiz savdodan yiliga 2 marta, rezidentlar yiliga 1 marta xarid qilishlari mumkin. Orol iqtisodiyotining asosiy qismini turizm tashkil etadi. Bu orolni yana "Sharq Gavaya"si ham deyiladi. Chunki uning maydoni va iqlimi Gavaya orollariga o'xshaydi.



## 2.12 – chizma: Xaykoudagi imtiyozlar

**Manba:** <https://ru.investing.com> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Hududda plyaj turizmi juda ham rivojlangan. Bu yerlar havosining tozaligi bilan dunyoda beshinchi o'rinda turadi. U Xitoydagi inson salomatligi uchun

talabga javob beradigan yagona shahar deb tan olingan va quyidagi nomlarni olgan: "Xitoyning mashhur turistik shahri", "Xitoydagi eng yaxshi qo'riqlanadigan shahar" va boshqalar. Xitoy bo'yicha kecha - kunduz xizmat ko'rsatadigan plyajlar ham aynan Shu yerda joylashgan. "Holiday" plyaji Xaykouning katta plyajlaridan biri hisoblanadi. U 7 kmga cho'zilgan. Bu yerda juda ajoyib iqlimga ega, plyaj atrofida chiroyli palmalar o'sadi. Bu plyaj 4 zonadan iborat:

1) Suv sporti zonasi. Bu yerda vindsurfing bilan Shug'ullanish mumkin yoki bo'lmasa Shunchaki quyoshda tovlanib yotish mumkin.

2) Ovqatlanish zonasi. Bu yerda keng tanlovdagi restoran va barlar joylashgan. U yerda turistlar uchun istalgan turdagi ovqatlar tayyorlanadi. Xalqaro "Baliq ovlash" klubi sizga baliq ovlab, Shunday ajoyib hordiqdan foydalanish imkonini beradi.

3) Hordiq chiqarish zonasi. Oilaviy hordiq chiqarish uchun maxsus joy. Musiqa klublari, bolalar uchun "bolalar dunyosi", "kapalaklar saroyi" va boshqalar mavjud. Bu yerning eng mashhuri "suv baleti" hisoblanadi. Hududda maxsus baliqchilar akvariumi mavjud, turistlar u yerda asablarini dam oldirib tanalarini yengillashtiradilar.

Hududda tropik park - Akvarium Binxayda joylashgan. U Xitoydagi eng katta akvarium hisoblanadi. Bu park 2000yil dekabrda ochilgan va o'sha yilning o'zida millionlab odamlar tashrif buyurgan. Maydoni 89 akra. Bu yerda haqiqiy dengiz havosi va plyaj (oyoq ostida muloyim tuproq). Bunda haqiqiy dengiz qo'shig'ini eshitish va muloyim quyosh nurida tovlanish mumkin. Bunda faqatgina tropik o'rmonni emas, okeanning ajoyibotlarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, bu yerda turli xil dengiz oshxonalarini uchratish mumkin. Bu erda "ming yillik" deb nomlangan baliq shaklidagi bino 2000-yilda qurilgan, balandligi 131 m. bino Guinness rekordlar kitobiga kiritilgan. Hozirgi kunda bu park Xaykou faxri hisoblanadi. "Ma An" vulqoni shahardan 15 km uzoqlikda joylashgan. Hozirgi kunda tasiri yo'q bu vulqon dunyoning eng mashhur vulqonlaridan biri. Maydoni 108 kv.km. vulqon 10000 yil oldin paydo bo'lgan.

Vulqon tepasigacha chiqish uchun 2000 m balandlikka ko'tarilish kerak. Vulqon tepasida tomosha maydonin bor. U yerdan turib turistlar Xaykou tabiatini ko'rishlari mumkin. Bu yerdagi ajoyibotni tasvirlash qiyin. Bu yerda turli o'simliklar va lavalardan paydo bo'lgan kichik tog'larni ko'rish mumkin. Yaqinida ajoyib park, shinam restarani ham bor. Umuman, Xaykouda 77 tadan ortiq mehmonxonalar mavjud. Ularning 20 tasi 4-5 yulduzli mehmonxonalar.

Xitoyning eng go'zal go'shalaridan biri Oltoy tog'lari hisoblanadi. Oltoy tog'i Xitoy, Qozoqiston, Mongoliya va Rossiya bo'ylab cho'zilgan yirik tizim hisoblanadi. Bu tog'ning uzunligi - 1650 km, kengligi - 130-200 km, balandligi- 1000-3000 m., dengiz sathi- 4374 metrni tashkil etadi. Maxsus turistik hudud maqomini olgan Kanas regioni Youyi qoyasining janubiy qiyaligida joylashgan. Umumiy maydoni 400 km<sup>2</sup> Shundan 210 km<sup>2</sup> muzliklar bilan qoplangan. Uning ko'p qismi qor bilan o'ralgan. Oltoy tog'lari o'z ichiga turli xildagi ajoyibotlarni, xususan muzliklar, qorlar, baland cho'qqilar, ko'llar, daryolar, o'rmon-u pastliklar, ayrim sersuv joylar va boshqalardan iborat. Shunday ajoyibotaridan biri Kanasda joylashgan. Bundan tashqari Kanasda oq va qora hamda qo'sh ko'llar ham bor. Do'zax vodiysi, ajdaholar zamini kabi mashhur joylar ham Shu tog'larda mavjud. Bular barchasi sayyohlar e'tiboridan chetda qolmaydi. Ekspertlar, Oltoyda dunyo chang'i kurortini tashkil etish uchun barcha shart-sharoitlar yetarli, deb ishonishmoqda. Oltoyni chang'ini yaratilgan joy deb, ya'ni odamlar dastlab Shu erda chang'ida uchishni o'rganishgan, keyin esa bu sport turi dunyo bo'ylab tarqalgan, deb hisoblashadi. Ularning aytishicha:" Bundan 10 ming yil oldin bizning(turkiylarning) otabobolarimiz Oltoy tog'larida mo'ynali snovboard qurishgan, bu ularga qor ustida tezroq yurish va ovlashga ko'maklashgan.

Bu tog'larning yana bir mashhur joyi Kanas hisoblanadi.Kanas - Oltoy tog'larida quyilib keladigan ko'l bo'lib, shimoliy Oltoy hududining Sinzyan Xitoyning Uyg'ur avtonom rayonida joylashgan. Ko'l Xitoy, Rossiya, Qozog'iston chegaralaridan 30 km uzoqlikda joylashgan. Bu ko'l asosan Tavan-Bog'do-Ula massivida joylashgan Oltoy tog'laridagi qorlardan to'yinadi. Ko'l

va uning atrofi qo'riqxonalaridan tashkil topgan. Ko'lining sohillari qalin o'rmon bilan o'ralgan bo'lib, unda 798 turdagi o'simlik, 39 turdagi hayvonlar, 117 xildagi qushlar, 4 turdagi amfibiylar, 7 turdagi baliqlar va 300 dan ortiq turli xil sudraluvchi hayvonlar mavjud. Ko'lining janubi - sharqiy sohilidagi Dengelekda tuva aholisi istiqomat qiladi. Shunisi etiborliki, ko'lda katta yangiliklar yaratish ko'zda tutilmoqda. Xitoyning markaziy televideniya kompaniyasida yangiliklarida kishini hayratga soluvchi tabiati haqida video lavhalar doimiy ravishda ko'rsatib boriladi. Kanas turistik hududini nazorat qilish bo'yicha boshqaruvchilarning bergan xabariga ko'ra, 2010-yil 19 iyunda hukumat Kanas turistik hududini yanada rivojlantirish uchun 5 "A" davlat kategoriyasi 316 mln. yuan pul ajratgan. Hozirgi vaqtda Sinzyan- Uyg'ur avtonom rayonining barcha turzonalarida turistik mavsumga har tomonlama tayyorgarlik ko'rilmogda.

Hududning umumiy er maydoni - 10000 kv km tashkil etadi va bu turistik hududda Kanas qo'riqxonasi, Kanas geoparki, Burtain vodiysi, Xemu adirlari, Kanas ko'li dunyodagi eng go'zal ko'llardan biridir. U Xitoyning eng chuqur ko'li bo'lib, dengiz sathidan 1374 m balandlikda joylashgan. Uning atrofida haybatli o'rmonlar bo'y cho'zgan va cheksizlik bilan o'ralgan. Ko'l shimolida qorli Kuytun tog'i bo'lib, dunyoda "Do'stlik" dam olish maskani sifatida mashhur.

## **II bob bo'yicha xulosa**

Bugungi kunda dunyo turizmi rivojlanishi rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga tomon o'zgarimoqda. Bu o'rinda turistik bozorning deyarli yarmini qamrab olgan Osiyo-Tinch okeani, Yaqin va O'rta Sharq hamda G'arbiy Afrika mintaqalaridagi mamlakatlar yetakchilik qilimoqda. Rivojlanib borayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi asosan tabiiy yoki ekologik turizm hisobiga amalga oshirilimoqda. Ayni paytda, jahon turizm sanoatida xalqaro turizmdan tushgan daromad avtomobil, neft gaz ishlab chiqarish sanoatidan keyin 3-o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini, ayniqsa turizm xizmatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilimoqda, biroq hududlarda mavjud turistik

potensialdan toʻlaligicha foydalanilmayapti. Bundan tashqari xorij tajribasini kuzatadigan boʻlsak, turistik erkin iqtisodiy hududlarning yaratilishi orqali sohaning iqtisodiyotdagi ulushi keskin ortib bormoqda.

Misol uchun, Tunisda investitsiyalarni jalb etuvchi muhim tarmoq - turizm hisoblanadi. Turizmni tashkil etish va bu tarmoqdan keladigan daromad boʻyicha Tunis Afrika qitʻasida birinchi oʻrinni egallaydi. Tunis YAIMning yarmini turizm bermoqda, mamlakatga 4 mln. turist keladi.

Bunday hududlar sonini uzluksiz davom ettirish mumkin. Jumladan, Aruba TEIHi misolida koʻradigan boʻlsak, 1985 yilda orol davlatga 2000 turist kelgan boʻlsa, 1996 yilga kelib ularning soni 7103 taga yetgan. Hozirgi kunda har yili keladigan sayyohlar soni 1.5 mln ni tashkil etadi va ularning aksariyati AQSH dan tashrif buyuradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi. Rossiya Federatsiyasida 2005 – yildan buyon bugunga qadar 13 maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etilgan, bular ikkita sanoat ishlab chiqarish, toʻrtta texnologiya-innovatsion va yettita turistik sogʻlomlashtirish hududlari boʻlib hisoblanadi. Mazkur hududlarda 74 tadan ziyod kompaniyalar faoliyati tashkil qilingan. Rossiyada 2008-2010 yillarda mavjud boʻlgan sayyohlik biznes infratuzilmasi xalqaro standartlarga javob bermas edi, chunki fuqarolarning katta soni asosan chet elga zamonaviy sayohlik va dam olish joylarini tomosha qilish, umuman, dam olish maqsadida borib kelar edi. Aslida turizm sohasini rivojlantirish hamda turistlar oqimini koʻpaytirish uchun mavjud tarixni saqlab qolish bilan bir qatorda zamonaviy madaniyat hamda infratuzilmani rivojlantirish kerak. Turistik-rekratsion tipdagi hududlarni barpo etish Rossiya Federatsiyasining turistik jozibadorligini oshirish uchun xizmat qildi. Bu esa oʻz navbatida ham hudud obodligiga, ham iqtisodiy oʻsishiga oʻz taʼsirini koʻrsatmay qolmaydi.

### **III BOB. BUXORODA TURISTIK ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR YARATISH ZARURATI VA IMKONIYATLARI**

#### **3.1 Buxoroda turizm sohasining rivojlanish holati**

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, shuningdek O'zbekistonda ham iqtisodiyotning turizm sohasiga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Insonlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tqazib, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf - odatlari, qadriyatlarini bilishga intilmoqdalar. Bunday xizmatlarni turizm sohasi ko'rsatadi. Ayrim mamlakatlarda turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8-10% gacha boradi. Bu esa turizm sohasining qanchalik darajada mamlakatlar iqtisodiyoti tizimida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.


Ta'kidlash joiz, viloyatda turizm sohasini rivojlantirish hududiy dasturiga muvofiq, sayyohlik ravnaq topib, uning infratuzilmasi mustahkamlanib borayotir. 2016 yilda vohada mehmonxonalar soni 4 taga ko'payib, 106 taga yetdi. Bugungi kunda viloyatdagi qo'shma korxonalar maqomli, xususiy, oilaviy va boshqa mulkchilik shaklidagi mehmonxonalar kuniga 4500 nafardan ziyod kishiga xizmat ko'rsata oladi.

BTSK baholashicha, O'zbekiston turizm sohasining iqtisodiy hissasi 2015 yilda 1,81 trln. so'm yoki YAIMning 1,1 foizini tashkil etgan. 864,2 mlrd so'mlik investitsiyalar (barcha kiritilgan sarmoyalarning 2,2 foizi) va 200 mln AQSH dollari miqdoridagi eksport xizmatlarini hisobga olganda YAIMning 3,2 %ini tashkil etadi. Turizmning O'zbekiston aholi bandligidagi bevosita ulushi 5 % (141,5 ming kishi)dan iborat.

Bugungi kunda, O'zbekiston iqtisodiyotini moderinizatsiya qilishda xizmatlar sohasi, ayniqsa, turizmni jadal rivojlantirish asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Tan olish kerakki, hozirgi davrga kelib bu soha juda katta yutuqqa erishdi va unga e'tibor tobora ortib bormoqda. Buni yurtimizda 2016-yil mamlakatimizda ko'rsatilgan turistik xizmatlar hajmi 2015-yilgiga nisbatan 113.4%ga, turizm xizmatlari eksporti esa 115.3%ga o'sganidan ham ko'rish

mumkin. Juda ko`plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining asosini turizm sohasidan keladigan daromadlar egallaydi.


O`zbekistonda 2016-yil holati ma'lumotlariga ko`ra, jami turistik faoliyat bilan shug`ullanadigan mehmonxonalarning soni 495 tani tashkil etgan.



**3.1-chizma. O`zbekiston Respublikasi 2016-yilda xizmat ko`rsatgan turistik firmalar**

**Manba:** O`zbekturizm MK tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

2016 yilda O`zbekistonga 1,979 mln. xorijiy sayyohlar tashrif buyurishgan. 2021 yilga kelib mazkur raqam 2,525 mln. nafar xorijliklarni tashkil etishi rejalashtirilmoqda.



**3.2 – chizma: O`zbekistonda xorijiy sayyohlar tashrifi prognozi**

**Manba:** O`zbekturizm davlat qo`mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2016 yilda mehmonxonalar soni 622 dona edi va mazkur raqam 2021 yilda 1036 tani tashkil etadi. Turoperatorlar soni ham 418 tadan 565 tagacha

ko'payadi. O'zbekiston Respublikasi 2022 yilga kelib turistik xizmatlar eksportini 2,722 mlrd. dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda., bugungi kunda bu ko'rsatkich 1,336 mlrd. AQSH dollarini tashkil etadi.

2016 yilda O'zbekistonda jami 1240 turistik korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shulardan 418 tasi turoperatorlik tashkilotlar, 622 tasi mexmonxona va boshqa joylashtirish tashkilotlari. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida hukumat barcha mintaqalar uchun "2017 -2021 yillarga turizmni rivojlantirish va turistik maxsulotlarning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora tadbirlar rejasi"ni tasdiqlagan. Ushbu Dasturda turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari kengroq yoritilgan.

Yildan yilga turizm va mexmonxona biznesi sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ham oshib bormoqda. Birgina Buxoro viloyatida 2016 yilning boshida turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi Buxoro viloyat boshqarmasiga qarashli 114 ta mexmonxonalar hamda 42 ta turistik firmalari mavjud. Xususiy mexmonxonalardan ko'pgina qismi eski shahar hududida joylashgan bo'lib, asosan ular B&B xizmatlarini taklif qiladi. Undan tashqari Buxoro shahrida biznes-otellar ham mavjud, ular shaharning markazida joylashgan va keng turdagi xizmatlarni taklif qiladi.


Joriy yilning 9 oy ichida taxminan 50 million AQSH dollari miqdorda chet ellik mehmonlarga sifatli servis xizmati ko'rsatilgan. Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi Buxoro viloyat boshqarmasi tomonidan turizm sohasida kadrlarni tayyorlash va ularning malakasi oshirish borasida Buxoro davlat universiteti va Buxoro turizm kolleji bilan hamkorlik qilib kelinmoqda. Ana shu hamkorlik samarasi bois bu yil turizm kollejini bitirgan 300 nafarga yaqin yoshlar turistik tashkilotlarga to'liq ish bilan ta'minlandi. Viloyatda turizm sohasidagi islohotlarning amalga oshirilishi bilan birga aholining mehnat bandligi ta'minlanmoqda. Oilaviy tadbirkorlik rivoj topmoqda, birgina turistik tashkilotlarda 1 yarim ming nafardan ortiq fuqarolar ish bilan band.

Buxoro viloyatida ham turizm industriyasi keskin rivojlanib bormoqda.

2015 yilda viloyatda jami 140 turistik tashkilot mavjud edi, shulardan 102 tasi mehmonxonadir. 2016-yilda sayohatchilar sonining oʻsishi 2015-yilga nisbatan 6,75 % ga, chet ellik turistlarning qabuli 9 % ga oʻsdi.

Turistlar oqimi 2016 yilda 127840 kishini tashkil qildi, bu koʻrsatkich 2015 – yilda 117200ni tashkil qilgan edi. Tashrif buurganlarning 76 %ni chet el fuqarolari tashkil qildi. Mazkur koʻrsatkichlar 2017 – yilda tubdan oʻsishi kutilmoqda. Sababi Shundaki, Oʻzbekiston respublikasi prezidenti tomonidan 2016 –yilning 6 – dekabr sanasida “Oʻzbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni taʼmirlash chora- tadbirlari toʻgʻrisida” qaror qabul qilindi va mazkur qarorda turizm sohasida faoliyat yurituvchi shaxslar uchun keng imkoniyatlar yaratib berildi.

Umuman olganda Buxoro viloyatida hozirgi kunda turistik resurslardan toʻliq va samarali foydalanilyapti deb bulmaydi. Shu tufayli turistlarga moʻljallangan mehmonxonalarning bandlik darajasi past holda qolib ketmoda, mavsumiylik holatlari kuzatilmoqda.




### 3.3 – chizma: Umumiy koʻrsatilgan xizmatlar hajmi

**Manba:** Oʻzbekturizm davlat qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Hozirgi kunda madaniyat oʻchogʻi sanalmish Toshkent, Samarqand, Xiva hamda Buxoro shaharlarida nisbatan turizm rivoji kuzatilmoqda. Yurtimizdagi turoperatorlarning asosiy qismi Toshkent shahrida faoliyat yuritadi va foydaning katta qismi ham Shu shahar budjetidan oʻrin egallaydi. Buxoro viloyatining bu boradagi ulushi 4%ni tashkil qilmoqda. Turistik salohiyati yuqori boʻlgan bu

viloyat uchun bu ko`rsatkich yuqori darajada emas. Bu ko`rsatkichni yaxshilash uchun viloyatimizda bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



### 3.4 – chizma: Xorijiy hamda mahalliy turistlar soni yillar kesimida

Manba: O`zbekturizm davlat qo`mitasi ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi

### 3.2 “Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududi” ni yaratish bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili

*“O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish Davlat Qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2016 yil 2 dekabr, PQ-2666-son*

Davlat siyosatini samarali amalga oshirish, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo‘nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish

davlat qo‘mitasi tashkil etildi, uning mintaqalarda bo‘limlari va vakolatli vakillari faoliyat olib boradi.

Shuni alohida qayd etib o‘tish kerakki, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining faoliyati eng avvalo nazorat va ma‘muriyatchilik vazifalarini amalga oshirishga emas, balki turizm sohasidagi tadbirkorlik faolligini kuchaytirishga butun choralar bilan ko‘maklashishga, turizmni rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan barcha g‘ovlar va to‘siqlarni bartaraf etishga, turizm xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

Mazkur Farmonni amalga oshirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga, tarkibiy o‘zgartirishlar va diversifikatsiya qilishga, barcha mintaqalarni va turdosh tarmoqlarni kompleks ravishda ildam rivojlantirishning yetakchi kuchi bo‘lish imkoniyatiga ega mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlashga, Shuningdek O‘zbekistonning jozibador turizm markazi sifatidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishga butun choralar bilan ko‘maklashadi. Bu farmonlarning ijrosi yuzasidan joylarda, xususan Buxoroda bir qator faoliyatlar boshlab yuborildi.

Buxoroning turizm sohasi mutaxassisleri, mutasaddi tashkilotlari hamda turizm kafedrasi professor-o‘qituvchilari hamkorligida *“Buxoroda turizmga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy hudud yaratish konsepsiyasi”* ishlab chiqilib, konsepsiya doirasida Buxoroda TEIH yaratish asoslari, oqibatlari, faoliyat doirasi, hudud oldidagi maqsadlar, hukumat hamda ma‘muriyat oldiga qo‘yiladigan vazifalar, hudud obyekti, subyekti, shug‘ullanadigan faoliyati kabi masalalarga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan hamda vazifalari belgilangan. Konsepsiya TEIHLari mavjud hamda faoliyati samarali tashkil qilingan davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan. Ilmiy asoslab berilgan mazkur konsepsiya doirasidan kelib chiqib *“Концепция создания свободной туристической зоны “Древней город Бухара” в городе Бухара”, 2017 yil 20 aprel, № 02-09/1091 sonli O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi farmoni* chiqarildi. Mazkur farmonga muvofiq 2017-2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm salohiyatini tezkor rivojlantirish dasturi ishlab

chiqilib, mazkur dasturda amalga oshiriladigan faoliyat, uning muddati, hisob-kitob qiymati, moliyalashtirish manbalari hamda ijrochi mas`ullar belgilab qo`yilgan. Dastur doirasidagi faoliyatlar boshlanib, Buxoroni rekonstruksiya qilish masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Shaharning turistik salohiyatini yuksaltirish maqsadida bugungi kunda bir qator qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu esa dastur amaliyotining boshlanganidan yaqqol dalolat beradi.

*Prezidentimiz SH. M. Mirziyoyevning 2017 yil 19 maydagi “2017-2019 yillarda Buxoro viloyati va Buxoro shahri turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PP-2980-sonli qarori*

Buxoro Osiyoning qadimiy shaharlaridan biri bo`lib, buyuk ipak yo`li chorrahasida joylashgan. Buxoro shahrining Buyuk ipak yo`li chorrahasida joylashganligi ilk davrlardan boshlab hunarmandchilik tarmoqlari (kulolchilik, temirchilik, misgarlik, zardo`zlik, zargarlik, shishasozlik, kandakorlik, badiiy kashtachilik va h.k.) va savdo-sotiq ishlarining rivojlanishiga turtki bo`ldi. Buxoro O`zbekistondagi tarixi uzoq davrlarga borib taqaladigan viloyatlardan biri bo`lib hisoblanadi. Buxoroning tarixiy qimmatini yuqorili, butun dunyoda mashhurligining yaqqol dalili sifatida 1993 – yilda YuNESKO ro`yxatiga kiritilganligidan ham anglash qiyin emas.

Buxoro qadimiy me`morchilik obidalariga boy. Ayni paytda bu yerda an`anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan bir qatorda sayyohlikning ekologik, sport, davolash-sog`lomlashtirish kabi qator turlarini rivojlantirish borasida katta imkoniyatlar mavjud. Bundan samarali foydalanish maqsadida Buxoro shahrida turistik erkin iqtisodiy hudud tashkil etish g`oyasi ilgari surilmoqda.

Mazkur qarorning qabul qilinishi bu yo`nalishdagi faoliyatlarni aniq belgilab berdi. Qaror bilan tasdiqlangan Dasturga asosan, Buxoro shahrining eski shahar qismida xorijiy sayyohlarning bo`sh vaqtlarini tunu kun mazmunli tashkil etish uchun 12 gektarlik “Qadimiy Buxoro” turistik zonasi, uning hududida zamonaviy mehmonxonalar, savdo-ko`ngilochar markazlar, 500 o`rinli amfiteatr barpo etiladi. Shaharning tarixiy qismida yopiq bozor va hunarmandlar

mahallasi tashkil qilinadi, “Buxoro Palas” va “Zarafshon” mehmonxonalarini qayta quriladi va 11 ta to‘rt yulduzli yangi mehmonxonalar, restoranlar quriladi, turistlarning kechki vaqt dam olishlari uchun teatrlashtirilgan konsertlar va musiqali shoular tashkil etiladi.

“Yetti pir” ziyoragohlari majmualari infratuzilmasi butkul yangilanadi. Yangi turistik yo‘nalishlar tashkil etish maqsadida Shofirkon tumanidagi “Og‘utma” ko‘li atrofida turizm infratuzilmasi rivojlantiriladi. “Jayron” ekologiya markazining “Tashrif markazi” kapital ta‘mirlanib va uning atrofida zoologiya bog‘i barpo etiladi. Peshku tumanidagi “Qoraqir” ko‘lida ov, plyaj va sport turizmi bilan shug‘ullanish uchun sharoitlarni yaratiladi, «Afshona» muzeyi atrofida ixtisoslashtirilgan uy-shifoxonalar quriladi. Albatta bu ishlarining barchasi viloyat turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shuning bilan bir qatorda 26-28 may kunlari Buxoroda an‘anaviy XVI an‘anaviy “Ipak va ziravorlar” xalqaro turizm festivali o‘tkazildi. Mazkur festivalning o‘tkazilishi ko‘hna va navqiron shahrimizning an‘anasiga aylanib bormoqda. Festivalning doirasida 27 – may sanasida tashkil etilgan an‘anaviy III ilmiy amaliy konferensiya yana bir marta turizm sohasining rivoji uchun xizmat qilishga turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Konferensiya mavzusi “Buxoroda turistik erkin iqtisodiy hududni yaratish imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari” bo‘lib, konferensiya doirasida BTEIHning yaratilishiga alohida to‘xtalib o‘tildi. Bir qator chet eldan kelgan mehmonlar, soha mutaxassislari bilan fikr va mulohazalar almashildi.



Konferensiya ishida xalqaro diplomatik korpus vakillari ishtirok etayotganligidan foydalanib, Buxoroda turizm sohasini rivojlantirish, xizmat ko‘rsatish tizimini yangilash hamda xalqaro tan olingan madaniy meros ob‘ektlarini saqlab qolishning bosh mezonini bo‘lmish xorijiy sarmoyalar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni jalb qilish masalalariga ham to‘xtalib o‘tildi.

Konferensiya ishida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi axborot-tahlil boshqarmasi boshlig‘i U.Xolbadalov, “Hunarmand” uyushmasi raisi o‘rinbosari L. Mirzaeva, Buxoro va Santa Fe shaharlari birodarlik qo‘mitasi raisi Kerol Roberson Lopez, Fransiyaning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Violen de Villemer, Turkiya xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (TIKA)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Suleyman Qiziltoprak, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi xorijiy eksperti Kvang Nam Kim, SMK (Litva) amaliy fanlar universiteti “Turizm va marketing” kafedrasini mudiri Yurate Sereykiene, O‘zbek-Yapon markazi so-direktori Xiroxiko Takata, BuxDU professori H.To‘rayevlar so‘zga chiqib, anjumanning asosiy maqsadi Buxoroni dunyo turizm markaziga aylantirish, xalqaro hamkorlikni yanada yo‘lga qo‘yish, Shuningdek, savdo-sotiq va milliy hunarmandchilikni rivojida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlashdi.

Kunning ikkinchi yarmida konferensiya uch yo‘nalishdan iborat seksiyalarga bo‘linib o‘z ishini davom ettirdi. Bu seksiyalarda moderator sifatida BuxDU professor – o‘qituvchilari faoliyat olib bordilar. Har bir seksiyada konferensiya ishtirokchilari tomonidan dasturga muvofiq ma‘ruzalar tinglandi. 1- sho‘ba bevosita “Erkin turistik iqtisodiy zonalar va turizm klasterlarini yaratishning ilmiy-amaliy asoslari” deb nomlanib mazkur sho‘bada dissertatsiya mavzuinga tegishli masalalar aytib o‘tildi. Konferensiya doirasida nashrdan chiqqan maqolalar to‘plamida chop etilgan “Buxoro turistik erkin iqtisodiy zonasini yaratishning ilmiy – amaliy jihatlari” mavzusidagi maqolam yuzasidan ma‘ruzaga chiqib BTEIHini yaratish borasidagi taklif va mulohazalarimni bildirdim. Bunda jahon tajribasiga asoslangan holda faoliyatni tashkil etish, chiqarilgan qaror va farmonlar yuzasidan faoliyatni boshlash va har bir mutasaddi tashkilot o‘z vazifasini sitqi dildan amalga oshirishi juda muhim hisoblanadi.

Viloyatimiz investitsion salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlari nihoyatda keng bo‘lib, avvalo qulay geografik hududda, M-37, A-380 xalqaro yo‘llari kesishmasida joylashgan. Xalqaro yuklarni tashishda Turkmaniston orqali

dengiz yo‘liga bog‘langan. Jahonda o‘z nufuziga ega bo‘lgan “Buxoro” xalqaro aeroporti, Toshkent-Buxoro yo‘nalishida atigi 3,5 soatda manzilga etib keladigan zamonaviy tezyurar poezdlari qatnovi ham bu borada imkoniyatlarimiz anchayin kengligidan darak beradi.

Albatta bu kabi qulayliklar kelgusida mamlakat, shu jumladan viloyatda turizm yo‘nalishida xorijiy investorlarni yanada kengroq jalb etishda, har ikki tomonlama manfaatli loyihalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘ylaymanki, o‘tkazilgan konferensiya doirasida ishlab chiqiladigan ilmiy tavsiyalar xorijiy sarmoyalar, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion loyihalarni jalb qilishning yangi yo‘nalishlarini belgilash hamda bu orqali viloyat turistik salohiyatini oshirish, servis sifatini yuksaltirish boshqa masalalar yechimini aniqlash va amaliyotga tatbiq etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

### **3.3 Buxoro turistik hududini takomillashtirish bo‘yicha takliflar**

- *Buxoro turistik erkin iqtisodiy hududini oddiy shakldan kompleks turiga qarab rivojlantirish, bunda modulli tipdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.* Avvalombor hududni tashkillashtirishda ma‘lum chegarani belgilagan holda o‘sha doirada hududga tegishli bo‘lgan bino inshootlar, turistik obyektlar, dam olish maskanlari, mehmonxona hamda restoranlarni qurish lozim. O‘z navbatida taklif etilayotgan chizmalar shaharning tarixiy ko‘rinishiga mos bo‘lishi talab qilinadi.

- *Hududni chet ellik turistlarni qiziqtiradigan eski bozordan boshlab Buxoro tarixiy obidalari zich joylashgan eski shahardan qarshi darvozasigacha bo‘lgan oraliqda tashkil qilish.*

E‘tiborni turistlar oqimi va iqtisodiy daromadga qaratibgina qolmasdan tarixiy ildizlarimizni tiklash va mavjudlarini saqlab qolishga ham qaratishimiz lozim. Buxoroning o‘rta asrlar topografiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, hududning tarixiy-etnografik qismi 500 gektar maydondan 1993 – yilga kelib 150 gektarni tashkil qilmoqda. Hududning jozibadorligi aynan uning tarixida

ekanligini hisobga olgan holda takomillashtirishda aynan shu gektarlarni saqlab qolish hamda qayta tiklab TEIH darajasiga keltirishga e`tibor qaratish lozim.



- *Belgilangan hududda turizmga aloqasi bo`lmagan bino-inshootlarning sonini kamaytirib, aloqadorlarini qo`shimcha ravishda ko`chirish tavsiya etiladi.* TEIHLar faoliyatini o`rganish jarayonida davlatlarda tashkil qilingan bunday hududlar qaysi sohaga yo`naltirilgan bo`lishiga qaramasdan, (masalan Aruba – orol davlat hududdagi plyajlari bilan mashhur, Filippin – sayyohlik markazlari 9ta, Mersin – bozorlarga eng yaqin shahar, Shenchjen – subprovinsional hudud) yo`nalishi bo`yicha barcha faoliyatlar doirasini qamrab oladi va alohida holi TEIH maqomi beriladi. Bunday hududlar maxsus hududlardan farq qilib, faoliyatining asosini erkinlik tashkil qiladi. Shu sababli bunday hududlarda sohaga bevosita aloqador tarmoqlarni birlashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

- *Faoliyati joriy qilinishi rejalashtirilgan “Turizm politsiyasi”ni hududda jolashuvini ta`minlash masalalarini ko`rib chiqish.* Xavfsizlik yashash jarayoning asosini tashkil qiladi. Har bir shaxs sayohatdan oldin, tinch, xavfsiz hududga sayohat qilishni istaydi. “2017-2021 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm sohasini tezkor rivojlantirish dasturi”ga “Turizm politsiyasi” faoliyatini tashkil qilish masalasi kiritilgan. Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi tomonidan Buxoro viloyatining turizm salohiyatini yanada oshirish dasturi asosida 39 loyiha amalga oshiriladi.

**Sayyohlar xavfsizligini ta`minlash,** turizmning ziyorat qilish, ekologik, ma`rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog`lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini taraqqiy ettirish, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (YUNVTO) hamda turizm bo`yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish, sayyohlik industriyasi ob`ektlarini jadal rivojlantirish, yo`l-transport va muhandislik-

kommunikatsiya infratuzilmasini qurish va rekonstruksiya qilish chora-tadbirlariga 18,5 milliard so‘m mablag‘ sarflanishi ko‘zda tutilgan.

“Turizm politsiyasi” faoliyatini tashkil qilishda avvalombor ular uchun alohida yangida «Tourist Police» yozuvli kiyim tashkil qilinishi bilan bir qatorda,



sohaga oid o‘quvlar tashkil qilinib chet tillari o‘rgatilishi lozim. Bunday nomdagi xodimlar faoliyati turizm sohasi rivojlangan bir qator davlatlarda joriy qilingan. Ularning asosiy vazifasi sayyohlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun mazkur xodim chet tilini bilishi, sayyohni bemalol tushuna olishi hamda qonun doirasidan kelib chiqqan holda maslahat hamda yo‘nalishlar bera olishi lozim. Misol uchun, bu soha vakillarining faoliyat doirasiga nafaqat sayyoh huquqlarini himoya qilish masalalari, balki sayyoh tomonidan qonun buzilish holatlarining ham nazorati kiritilishi lozim deb o‘ylayman.

